O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

U.S.Jo'rayev, D.B.Abdurahimov

KOMPYUTER GRAFIKASI

Uslubiy qo'llanma



GULISTON – 2016

U.S.Jo'rayev, D.B.Abdurahimov, "Kompyuter grafikasi" (tanlov fani) kursidan uslubuy qo'llanma, Guliston. 2016. - 148 bet.

Uslubiy qo'llanma "Kompyuter grafikasi" (tanlov fani) kursi bo'yicha o'quv dasturlari asosida tayyorlangan bo'lib, 5130200–"Amaliy matematika va informatika" bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Unda "Kompyuter grafikasi" (tanlov fani) kursi bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimiga asoslangan holda nazariy materiallar hamda amaliy mashg'ulotlari topshiriqlari, bilimlarni nazorat qilish uchun nazorat savollari hamda namunaviy test savollar majmuasi kabilar keltirilgan.

Uslubiy qo'llanma Guliston davlat universiteti o'quv-metodik Kengashi tomonidan (2015 yil 30 dekabrdagi 4 - bayonnoma) nashrga tavsiya qilingan.

Mas'ul muxarrir: S.Qulmamatov GulDU «Axborot texnologiyalari» kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Taqrizchilar: B.SH.Radjabov, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, «Informatika va tabiiy fanlar» kafedrasi mudiri, tex.f.d, professor.

S.P.Allayorov, GulDU «Axborot texnologiyalari» kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi, dotsent.

KIRISH

Hozirgi kunda Respublikamizning barcha ta'lim-tarbiya muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash masalalari ustida ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga fanlardan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida har xil o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va majmualar yaratilmoqda. Ushbu taqdim etilayotgan o'quv qo'llanma universitetning 5130200–"Amaliy matematika va informatika" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib u «Kompyuter grafikasi» (tanlov fani) kursini o'rganishga qaratilgan.

O'quv qo'llanma amaldagi o'quv dasturlar asosida tayyorlangan bo'lib, 5130200–"Amaliy matematika va informatika" bakalavriat yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Unda «Kompyuter grafikasi» (tanlov fani) kursi bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimiga asoslangan holda nazariy materiallar hamda amaliy mashg'ulotlari uchun topshiriqlar, bilimlarni nazorat qilish uchun nazorat savollari hamda namunaviy test savollar majmuasi kabilar keltirilgan.

O'quv qo'llanmada «Kompyuter grafikasi» fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari, Kompyuter grafikasining turlari va qo'llaninilish sohalari, CorelDraw hamda Photoshop grafik dasturlarida turli tasvirlar hosil qilish va ular ustida amallar bajarish kabi masalalarlar yoritilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma ham kamchiliklardan holi emas. O'quv qo'llanma haqidagi fikr va mulohazalarini bildirgan hamkasblar va aziz talabalarga mualliflar oldindan o'z minnatdorchiligini bildiradi.

> Manzilimiz: Guliston shahri, GulDU bosh bino, Fizika – matematika fakulteti, "Axborot texnologiyalari" kafedrasi.

> > 3

I BOB. KOMPYUTER GRAFIKASI ASOSLARI

1.1. Kompyuter grafikasi haqida tushuncha

1.1.1. Kompyuter grafikasi sohasi va uning axborotlashgan jamiyatdagi ahamiyati, roli va o'rni

Fan va texnika taraqqiyoti jamiyatimizni axborotlashgan jamiyatga aylantirdi. Bu jamiyatda faoliyat ko'rsatuvchilarning aksariyat qismi axborotlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan shug'ullanadilar. Bunday ishlarni zamonaviy kompyuterlarsiz amalga oshirish qiyin. Ulardagi ma'lumotlarni qayta ishlash mashina grafikasi yordamida amalga oshirilsa foydalanuvchiga katta qulayliklar yaratiladi.

Mashina grafikasi deganda ob'ektlarning hajm modellarini yaratish, saqlash, ishlov berish va kompyuterlar yordamida ularni tasvirlash tushuniladi.

Kompyuter grafikasi yangi axborot texnologiyalar orasida to'xtovsiz rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bunday rivojlanish texnika sohasida ham (grafika stantsiyalari), dasturiy vositalar sohasida ham ko'zga tashlanmoqda. Ular videofilm kadrlari bilan sifat bo'yicha taqqoslashga loyiq haqiqiy, hajmli xarakatlanuvchi tasvirlarni yaratishga imkon beradi. Bu dasturiy maxsulotlar reklamalar ishlab chiqaruvchi vositalar hisoblanib, san'at va multimediya texnologiyasi soxalarida qo'llaniladi. Bundan tashqari namoyish grafikasiga, geometrik modellashtirishga, grafik interfeyslarni loyihalashga, animatsiya (xarakatlanuvchi tasvirlar) ga va ko'zga ko'rinuvchi (vizualno'y) xarakatni ko'rishga katta e'tibor berilmoqda.

Kompyuter grafikasi ilm va fanning barcha sohalarida, ayniqsa iqtisodiy ko'rsatgichlarni tahlil qilishda muvoffaqiyatli qo'llanilishi mumkin.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Kompyuter (mashina) grafikasi deganda.....

A) Zamonaviy kompyuterlar yordamida grafik yoki geometrik ob'ektlarning xajm modellarini yaratish, tasvirlash, ishlov berish va ularni tashqi xotira qurilmalariga saqlash jarayonlari tushuniladi.

B) Foydalanuvchini kompyuter bilan muloqati uchun ovoz, video, grafika, matn, animatsiya va boshqa vositalar yordamida tabiiy muhitni ta'minlash jarayoni tushuniladi.

C) Foydalanuvchi dastur va ma'lumotlar bilan ishlayotganda grafik elementlar yordamida kerakli amallarni bajarilishi tushuniladi

D) Kompyuter grafikasining juda tez rivojlanib borishi tushinaladi

2. Multimedia texnologiyasi deganda......

A) Zamonaviy kompyuterlar yordamida grafik yoki geometrik ob'ektlarning xajm modellarini yaratish, tasvirlash, ishlov berish va ularni tashqi xotira qurilmalariga saqlash jarayonlari tushuniladi.

B) Foydalanuvchini kompyuter bilan muloqati uchun ovoz, video, grafika, matn, animatsiya va boshqa vositalar yordamida tabiiy muhitni ta'minlash jarayoni tushuniladi.

C) Foydalanuvchi dastur va ma'lumotlar bilan ishlayotganda grafik elementlar yordamida kerakli amallarni bajarilishi tushuniladi

D) Kompyuter grafikasining juda tez rivojlanib borishi tushinaladi

3. Grafik interfeys deganda......

A) Zamonaviy kompyuterlar yordamida grafik yoki geometrik ob'ektlarning xajm modellarini yaratish, tasvirlash, ishlov berish va ularni tashqi xotira qurilmalariga saqlash jarayonlari tushuniladi.

B) Foydalanuvchini kompyuter bilan muloqati uchun ovoz, video, grafika, matn, animatsiya va boshqa vositalar yordamida tabiiy muhitni ta'minlash jarayoni tushuniladi.

C) Foydalanuvchi dastur va ma'lumotlar bilan ishlayotganda grafik elementlar yordamida kerakli amallarni bajarilishi tushuniladi

D) Kompyuter grafikasining juda tez rivojlanib borishi tushinaladi

1.1.2. Kompyuter grafikasi kursining predmeti, mazmuni va vazifalari

Kompyuter grafikasi jaxonda yangi fundamental fanlardan biri hisoblanib o'tgan asrning 90 – chi yillarida paydo bo'ldi hamda fan va ishlab chiqarishning barcha sohasida kadrlar tayyorlab berishda o'ziga xos mustaqil ahamiyatga egadir.

Maxsus dasturlar yordamida xuddi bir varaq oq qog'ozga qalam yoki ruchka bilan har xil rasmlarni solish singari kompyuter ekranida sichqoncha yordamida rasm chizish, ya'ni tasvir tuzish, tuzatish va ularni harakatlantirish imkonini yaratdi. Bu dasturlar rasm solish dasturlari yoki grafik muharrirlar hisoblanib, ular yordamida rasmning elementlari boshqarib boriladi.

Kompyuter grafikasining juda tez rivojlanib borishi va uning texnikaviy va dasturiy vositalarining yangilanib turilishi ushbu kursning hamisha takomillashtirishga, bu sohadagi yangi yo'nalishlarni tinmay o'rganib borishni taqazo etadi. Oxirgi yillarda bu sohada juda katta o'zgarishlar (siljishlar) yuz berdi, ya'ni 16 mln.dan ortiq rang va rang turlarini (ottenok) o'zida aks ettira oladigan displeylar, grafik axborotlarni (paper part) kirituvchi moslama - skanerlar, grafik ish stantsiyalari; dasturiy vositalar sohasida esa haqiqiy kompyuter dunyosini kashf qila oladigan amaliy dasturlar vujudga keldi.

«Kompyuter grafikasi» informatika sohasida o'rganiladigan ko'pgina fanlar o'quv rejalarining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtda kompyuter grafikasi quyidagi kurslarning tarkibiy qismi hisoblanadi:

"Informatika va xisoblash texnikasi asoslari"

"Informatika"

«Programmalash asoslari»

"Operatsion tizimlar"

«Tizimli va amaliy dasturlar ta'minoti»

«Internet asoslari»

"Kompyuter tizimlari va tarmoqlari" va boshqalar.

Berilgan ma'lumotlarni taxlil qilishda, olingan natijalarni ko'rimli qilib ko'rsatishda va taqdimot (prezentatsiya) uchun materiallar tayyorlashda, tasvirlarni qayta ishlashda, yangi marakkab kompozitsiyalar yaratishda zamonaviy kompyuter grafikasi keng qo'llaniladi. Yuqoridagi sohalar bo'yicha bilim olish va amaliyotda tatbiq qilishda "Kompyuter grafikasi" fanining ahamiyati juda katta.

Kursning vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarda hozirgi zamon kompyuter grafikasi bo'yicha bilim negizini paydo qilish.

- talabalarning hozirgi zamon kompyuter grafikasi vositalarini va ularning ishlatilishini o'zlashtirish.

- kompyuter grafikasining texnologik tuzilishini va har xil namoyish materiallarini o'rganish.

- kompyuter grafikasi rivojining o'rni va hozirgi zamon holatini bilish.

- hozirgi zamon shaxsiy kompyuterlarida grafikaning texnologik tuzilishini o'rganish.

- hozirgi zamon kompyuter grafikasini o'zining o'quv soxasida va professional faoliyatida foydalanishni bilish.

- kompyuter grafikasining texnikaviy vositalari va zamonaviy dasturlari bilan doimiy ishlash malakasini oshirish.

Umuman hozirgi kunda har bir tashkilot, o'quv muassasasi, firma va ishlab chiqarishning barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari unumli qo'llanilib kelinmoqda.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Kompyuter grafikasi nima?

2. Kompyuter grafikasining zamonaviy axborotlashgan jamiyatdagi roli va o'rni nimalardan iborat?

3. Kompyuter grafikasining qo'llanilish ob'ektlariga misollar keltiring?

3. Multimedia texnologiyasi deganda nimalar tushuniladi?

4. Kompyuter grafikasi kursining vazifasi nimalardan iborat?

5. Kompyuter grafikasi kursini o'qigan talabalar nimalarni bilishlari kerak?

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. M.Aripov, A.Xaydarov, Informatika asoslari, O'quv qo'llanma, Toshkent, 2006 y.

2. T.Rixsiboev, Kompyuter grafikasi, O'quv qo'llanma, Toshkent, 2006 y.

3. Sh.Razzoqov, Sh.Yo'ldoshev, U.Ibragimov, Kompyuter grafikasi, O'quv qo'llanma, Toshkent, 2006 y.

4. A.O.Kotsyubinskiy «Risunki na kompyutere» - M., 2000g.

5. F. Koburn, P.Makkormik «Corel Draw 9» - SPB., 2000g.

- 6. A.Tayts «Photoshop 5,5» SPB, 2000 g.
- 7. D.Rayan «Injenernaya grafika v SAPR» M.,1989g.
- 8. Fyodorenkov, Kimaev «Auto CAD 2002» M., 2001g.
- 9. D.Disalen «Auto CAD programmirovanie» M., 1992g.

1.2.Kompyuter grafikasi asoslari

1.2.1. Elektron grafiklar qurishning texnologik asoslari

Grafikni tuzish va uni tushunish uchun grafika elementlari ma'nosi va ularni turli holatlarda qo'shilishini o'rganish zarur.

Grafik yordamida tayyorlanadigan voqeliklarni to'g'ri tushunish uchun uni tashkil etuvchi hamma elementlarining to'plami mavjud bo'lishi kerak. (shkalalar, sarlavhalar va h.k.)

Tasvirlashning grafik usuli yoki grafik til - bu fikrni ifodalashning fazoviy tasvirlanishi yoki qandaydir tekislikda shartli ravishda aks ettirish usullarining to'plamidir. Grafik tasvirlashning namunalariga geometrik kartalar, iqtisodiy analizning diagrammalar tizimi, korxonlarning struktura sxemalari va boshqalarni keltirish mumkin.

Qandaydir fikrlar to'plamini ifodalovchi chizmalarni tuzish jarayonni grafiklashtirish deyiladi, uning natijasi esa - grafika deyiladi. Grafika shartli ravishda voqelikni yoki qandaydir jarayonni tasvirlaydi. Grafikada qo'llaniladigan hamma

belgilar - bu g'oyalar belgisi, grafikning o'zi yaxlit holatda g'oyalar to'plamini ifodalashdir.

Grafikaning ikki xil elementi ajralib turadi: grafik qiyofa va eksplikatsiya.

Grafik qiyofa - bu chizmalar to'plami bo'lib, o'zaro bog'lanishlari bilan birgalikda tushuniladi.

Eksplikatsiya - grafik obrazning ma'nosini ochib beradigan ma'lumotlar to'plami. Grafik obraz simvollik yoki geometrik shaklda bo'lishi mumkin.

Shartli belgilar yordamida tuzilgan, ma'nosi uning geometrik shakliga bog'lanmagan bo'lib, sharoitga bog'liq holda tushuniladigan obrazlar simvolik obrazlarga tegishlidir.

Shartli belgilar qandaydir tushunchalar (simvollar) bilan puxta bog'langan bo'lishi, aniq bir belgilar to'plami esa simvolikalar bilan ifodalanishi mumkin.

Simvolik ko'rinishdagi ikki o'lchovli grafik obrazlar grafikani tashkil etadi.

Geometrik ma'noga ega bo'lgan, shu shaklda biror tenglamani yoki tengsizlikni ifodalovchi obraz geometrik grafika deyiladi.

Masalan, inflyatsiyaning o'sishini ko'rsatuvchi egri chiziq shu ko'rinishda emas, balki iqtisodiy kategoriya sifatida qiziqarlidir.

Grafik obraz koordinata sistemasi yordamida masshtablashtirilgan shkal, o'lchov birligi nomli tur, grafika umumiy sarlavxasi, umumiy va xususiy tushuntirish usuli, sonlar chizig'i to'ldiruvchisi va qaytariluvchi sonlar sifatida tushuniladi.

Grafik obraz butun son ko'rinishida ifodalanishi mumkin.

Grafika eksplikatsiyasi uch xil ko'rinishga ega bo'lishi mumkin: geometrik, ideografik va xususiylashgan.

Ideografik eksplikatsiya - shartli belgilarni ma'nosini tushuntiradi-figurali, chizikli, fonli va boshqalar (agar bu belgilar standartlashtirilmagan bo'lsa), bu shartli belgilar grafika elementlariga aniq bir ma'no bag'ishlaydi.

Geometrik eksplikatsiya - koordinata o'qlari, to'r, shkalalar, masshtablar. Ular yordamida geometrik qiyofalar geometrik xususiyatlarga ega bo'ladi, chunki bu vositalar yordamida geometrik yuzalar xossalaridan foydalaniladi. Xususiylashgan eksplikatsiya - sarlavhalar, tushuntirishlar (chiqish sonlari va belgilarga). Bu tushuntirishlar grafikaning ushbu bilimlar doirasi butun majmuasida qanday joy egallaganini ko'rsatadi va til nuqtai nazaridan grafikaning eng zaruriy elementi hisoblanadi, chunki usiz grafika hech qanday ma'noga ega bo'lmaydi.

Eksplikatsiyadan tashqari grafikada qo'shimcha ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin: raqamli ma'lumotlar, takrorlanuvchi qiymatlar va h.k. Grafika bilan ifodalanuvchi mantiqiy qayta ishlash joizdir, uni qandaydir belgisiga ko'ra guruxlash esa butun bir axborot to'plami to'g'risida hukm chiqarishga asos bo'ladi.

Berilgan axborotlarni xronologik ketma ketligi buzilgan taqdirda, grafika butunligi taassuroti buziladi.

Shunday qilib grafika - bu maxsus, fikran yaxlit xayoliy qurilmalarning (ansambllarning) ikki o'lchovli (yoki uch o'lchovli) tasvirda ifodalangan grafik qiyofasi va uning eksplikatsiyasidir.

Grafiklar qurishning texnologik asosini tashkil etish munosabati bilan, ularda ishlatiladigan shartli belgilarni ko'rib chiqamiz.

Shartli belgilar - bular shunday chizmalarki, ular berilgan sifat ko'rsatkichlarini shartli belgilarda ifodalaydi. Bir xil tushunchalarni belgilashda - bir xil shartli belgilardan, turli tushunchalarni belgilashda turlicha belgilar ishlatiladi. Natijada, to'liq shu bilan birga darajalangan qiyofa vujudga keladi:

figurali (harflar, raqamlar, ochiq va yopiq figuralar sxematik va kartina ko'rinishidagi tasvirlar);

chiziqlar (nisbatlarni belgilash uchun, aloqa chiziqlari, geometrik o'lchovlarni ko'rsatish uchun (o'zinligi, yo'nalishi, ko'rinishi va h.k.);

fon belgilari - maydon va yuzalarni rang bilan yoki shtrixlar bilan ularni xususiyatlarini ko'rsatish uchun qoplash.

Shartli belgilar chizma yuzasida ma'lum bir tartibda joylashtiriladi. Masshtabsiz grafiklarda belgilar erkin montaj ko'rinishida, zonal va jadval turi ko'rinishida beriladi. Bu erda grafikani yorqinlashtiruvchi vosita sifatida rangdan foydalaniladi. Zonal turi - berilgan maydonni bo'laklarga bo'lib, har bir bo'lakka maxsus qiymatni biriktirib qo'yish. Har bir zona gorizontal yoki vertikal polosa shaklida bo'lib, o'z sarlavxasiga ega bo'ladi.

Jadval turi - bu o'zaro kesishuvchi zonalarning kombinatsiyasidan iborat.

Grafiklarni tuzishda, uning texnologik asoslarini ko'rishda uning yuklash muammosini - grafikka chiqariladigan chizmalar sonini ham nazarda to'tish kerak. Bu erda qo'yiladigan asosiy talab - grafik tomonidan ko'rsatiladigan kompleksning eng asosiy qismlari birinchi navbatda ko'rsatilib, detallar soyada, ikkinchi navbatda ikkinchi darajali detallar, uchinchi navbatda yordamchi detallar ko'rsatiladi va hakozo.

Grafikning yuklamasini kamaytirish quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

1. Ketma ket detallashtirish usuli (bitta grafik o'rniga, dastlabkisiga o'xshash grafiklar seriyasi tuziladi).

2. Ulanish usuli (umumiy tizimga birlashtirilgan va bir necha turli xil nuqtalardan olingan tasvir).

3. Asosiy kontur usuli (umumiy konturga ega bo'lgan grafiklar seriyasini tuzish va har bir grafikka o'z xarakteriga mos keluvchi chizmalar tushirish).

4. Oddiy solishtirish usuli (bir biriga bog'lik bo'lmagan va bir xil qoidalar asosida tuzilgan grafiklarni to'plash).

1.2.2. Elektron grafik tasvirlar qurishning zamonaviy usullari

Grafikaning texnologik asoslarini qurishda uning yaqqo'lligini ham nazarda to'tish zarur.

Grafikani yaqqo'lligini oshiruvchi va uning yuklama qobiliyatini ko'paytiruvchi vositalardan biri bu rang berish usulidir. Lekin rang grafikada aralashquralashlikni keltirib chiqarmasligi kerak. Masalan, alohida regionlarda aholini zichligini ko'rsatishda turli xil regionlar orasida go'yoki uzilishni ifodalagandek taassurot qo'ldiradi. Bu holda bir xil rangni raqamning qiymatiga qarab to'q yoki och holatini ishlatgan ma'qul. Amaliy dasturlar paketlarining (ADP) keng tarqalishi shu bilan asoslanadiki, tasvirni kommunikatsiya vositasi sifatida qabul qilish inson uchun tabiiy rok bo'lib bu usulda ham etarli aniqlikka erishish mumkin.

Mashina grafikasini passiv va interaktiv bo'laklarga bo'lish avvaldan ma'lum. Bundan 20 yil avval ulug' olimlarni, san'at ustalarini, sportchilarni, multiplikatsion filmlar qaxramonlarini (masalan, bo'ri, quyon rasmlari), Albert Eynshteyn rasmi alfavit raqamli chop etuvchi qurilmalardan chiqarish keng tarqalgan edi. Bunda rasm ma'lum nuqtalarga bir xil belgilarni tushirish orqali, rang tafovut esa ba'zi bir joylarda shu belgilarni bir necha marta urib (to'q rang uchun), ba'zi bir joylarda bir marta tushirib (och rang uchun) mashina qog'ozi satxida hosil qilinardi. Tasvirni bunday usulda hosil qilish passiv mashina grafikasiga tegishlidir.

Interaktiv mashina grafikasi (IMG) bu shundayki, bunda tasvirning holati, uning shakli, mazmuni, o'lchamlari va rangi displey ekranida interaktiv qurilmalar yordamida dinamik ravishda uzluksiz o'zgartirilib, boshqarib turiladi.

Zamonaviy shaxsiy kompyuterlarda hosil qilinadigan grafikalar amaliy jihatdan qaraganda hammasi interaktivdir.

Passiv mashina grafikasiga planshetli va barabanli grafik quruvchi qurilmalar yordamida, shuningdek printer, kino va videokameralar yordamida hosil qilinadigan tasvirlar kiritiladi.

Bu qurilmalar yordamida hosil qilinayotgan tasvirga bevosita ta'sir qilib bo'lmaydi. Displey qurilmasi, sichqoncha yordamida kiritish, klaviatura, skaner qurilmalari orqali tasvir hosil qilishda tasvir jarayonini istagancha boshqarish mumkin.

Yuqorida ko'rib o'tilgan hamma tasvir hosil qilish usullarining umumiy tomoni shundaki, bu erda tasvir raqamli protsessor yordamida hosil qilinadi.

Grafik tasvirni hosil qilishni zamonaviy usullari bilan yaxshiroq tanishish uchun kompyuter grafikasining uch usulda – **rastrli, vektorli va fraktal** usulda hosil qilinishini ko'rib chiqamiz. Bu usullarning asosiy farqi ekran yuzasi bo'yicha nurni haraktlanishining turlichaligidadir.

12

Vektorli kompyuter grafikasi - bu usulda vektorli displeylardan foydalaniladi. Vektorli qurilmalarda xotirlovchi elektron nurli trubka qo'llanilib, nur ekran bo'yicha berilgan traektoriya bo'yicha bir marta yugurib o'tadi va shu holat ikkinchi buyruq kelmaguncha trubka xotira qurilmasida saqlanib qo'ladi.

Rastrli qurilmalarda tasvir uni hosil qiluvchi nuqtalarning yig'indisi sifatida paydo bo'ladi. (piksel va PEL-lar yigindisi). Rastr - deb gorizontal qatorlarning vaqt birligidagi yig'indisiga aytiladi. Bunda har bir qator alohida PEL lardan tashkil topadi. Nur ketma-ket har bir qator bo'ylab yugurib o'tadi. Har bir PEL lardan o'tayotganda nurning yorqinlik darajasi o'zgaradi. Displeylar turli rejimda ishlashi mumkin.

Bir qatordagi piksellar sonini ekrandagi qatorlar soniga ko'paytmasi displeyning sezuvchanlik darajasini ko'rsatadi. Sezuvchanlik darajasi qanchalik katta bo'lsa, shunchalik hosil qilinadigan tasvirni sifati ham yaxshi bo'ladi, lekin teskari nisbatda apparatura tannarxi qimmatlashib boradi.

Fraktal grafikaning asosi matematik formula bo'lib, matematik formulalar yordamida tasvirlar hosil qilinadi. Kompyuter xotirasida tasvir shakli emas, balki uning formulasi saqlanadi. Ba'zi hollarda fraktal grafikaning matematik hisoblashlar grafikasi ham deyiladi.

Shaxsiy kompyuterlarda ishlatiladigan displeylar 2-xil sezuvchanlikka ega:

- 1. Past sezuvchanlik 200 vert. nuqtalar * 320 gorizon. nuqtalar;
- 2. Yuqori sezuvchanlk 200 vert. nuqtalar * 640 gorizon. nuqtalar;

Nazorat uchun savollar:

- 1. Jadvalli til termini nimani bildiradi?
- 2. Jadval va jadvallashtirish deganda nima tushuniladi?
- 3. Jadval qiyofasi nima?
- 4. Eksplikatsiya nima?
- 5. Jadval qiyofasi qanday turlarga bo'linadi?
- 6. Grafik obraz qanday talqin qilinadi?

7. Geometrik, ideografik va individuallashtirish eksplikatsiyasi deganda nima tushuniladi?

- 8. Jadvalning texnologik asosi deganda nima tushuniladi?
- 9. Grafikada qanday shartli belgilar turlari qo'llaniladi?
- 10. Zonali va tablitsali tur nima?
- 11. Grafik yuklamasini kamaytirish qanday amalga oshiriladi?

1.3. Kompyuter grafikasi turlari va ularning zamonaviy usullari1.3.1. Kompyuter grafikasi qo'llanilish sohalari

Kompyuter grafikasining quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- tijoratga oid
- namoyishlarga oid
- muxandislikka oid
- ilmiy
- ko'rgazmaviy
- animatsion

Tijoratga oid grafika elektron jadvallarda yoki berilganlar bazasidagi axborotlarni aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bu axborotlar kompyuter ekranida grafik shaklida, gistogramma, diagramma va hoxlagan boshqa shakllarda aks ettirilishi mumkin, kerakli grafiklar matn izohlari va ma'lum joylarda belgili izohlar bilan ta'minlanadi.

Tijorat grafikasiga tegishli bo'lgan amaliy dasturlar paketi tasvirni ekranda tezda va kerakli servislar bilan ifodalashga qaratilgan, chunki tijoratchining asosiy maqsadi axborotlarni qayta ishlash jarayonidagi o'zgarishlarni tezda muhokama qilib, tegishli o'zgartirishlar kiritishdan iborat.

Tasvirni yaqqo'lligini yanada oshirish uchun ushbu paketlarga tasvirni ekranda bir necha xil grafika shaklida tasvirlash imkoniyati kiritilgan. Bu esa o'z navbatida tasvirlarni ekranda birgalikda ko'rib, mulohazalash imkoniyatini oshiradi. Bu paketlarni eng ahamiyatli tomoni shundaki, ular tasvirlarni turli xil shaklda berishdan tashqari aks ettirilgan grafikalarni analiz qilish imkoniyatini ham beradi. Shu sababli bu paketlarga turli xil matematik analiz usullari, shu jumladan statistik analiz, ehtimollar nazariyasi, iqtisodiy jarayonlar bashorati kabi usullar kiritilganki, ular berilgan axborot to'plamini analiz qilish imkonini beradi.

Namoyish qilish grafikasi - matn, sxema, eskiz kabi hujjatlarni mashina tasvirini hosil qilib uni namoyishga tayyorlash uchun xizmat qiladi. Bu erda eng asosiy vazifa – yuqori sifatli va chiroyli ko'rinishdagi tasvirlar hosil qilishdan iborat. Shu tipdagi grafikalarning eng afzal tomoni shundaki, bunday tasvirlarning to'plami va ko'rinishini tezda o'zgartirish mumkin.

Injenerlik grafikasi - bunday grafika chizmachilik, proektlash va konstruktorlik ishlarini avtomatlashtirishda keng qo'llaniladi. Injenerlik grafikasi analiz, sintez, modellashtirish, matnlashtirish, chizmachilik, boshqarish va shu kabi proektlashni avtomatlashtirish ishlarining hamma bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Ilmiy grafika - ilmiy izlanishlar uchun xizmat qiladi va geografik, fizik, biologik va boshqa jarayonlarni tadqiq qilishda qo'llaniladi. Ilmiy grafikaning eng asosiy maqsadi ilmiy izlanishlarda hosil bo'ladigan axborotlarni vizuallashtirish - ko'zga ko'rinarli shaklda ifodalashdir. Ayniqsa bu yo'nalish atom energiyasi manbalarini tadqiq qilishda, kosmonavtika va samolyotsozlikda, geografiyada va okeanologiyada - xullas qamrovi katta bo'lgan, tez kechadigan jarayonlarni o'rganishda juda qo'l keladi. Shuningdek, ilmiy izlanishlar natijalarini kerakli shaklda diagrammalar, kartalar, jadvallar va turli matematik formulalar shaklida tasvirlashda keng qo'llaniladi.

Ko'rgazmaviy grafika - namoyish va tijorat grafikalarining rivoji bo'lib, shu ikkala grafika imkoniyatlarini yig'indisi integratsiyasini tashkil etadi. Bu grafika ayrim grafikalarini slaydlar ketma-ketligidan iborat slaydfilm qilib yaratib, so'ngra uni ma'lum vaqt ichida ekranda ketma-ket ko'rgazma shaklida namoyish etadi. Har bir slaydni ekrandagi tasviri ovoz va vizual effektlar bilan qo'shib olib borilishi mumkin. Undan tashqari, tayyor grafikni tahrir qilish imkoniyati ham mavjud.

15

Animatsion grafika rang bilan ishlashdagi muvaffaqiyatlarni injenerlik grafikasidagi uch o'lchovli ob'ektlarni modellashtirishdagi yutuqlar bilan (masalan, reklama e'lonlari va teleko'rsatuvdagi bir tasvirni ichiga ikkinchisini kiritish) qo'shib uyg'unlashtirilgan.

Umumiy holda grafikadagi tasvirlar ikki xil ko'rinishda: ikki o'lchovli yoki uch o'lchovli shaklda bo'ladi. Ikki o'lchovli grafikaning dasturiy ta'minoti (DT) X, U koordinatalari tizimida yuza tasvirini hosil qilish imkoniyatini beradi. Bu 2D ko'rinishidagi tasvirdir.

Uch o'lchovli grafikaning dasturiy ta'minoti tekis ekranda X, U, Z (3D) koordinatalari tizimida tasvirlarni hosil qilish imkonini beradi.

4D grafigi – vaqt tizimidagi uch o'chovli tasvirdir. Shuningdek 2,5D turidagi tasvir ham mavjudir. Bu 2D ko'rinishli tasvir bo'lib 3D tasvirining ba'zi bir xususiyatlari bilan to'ldirilgan. (masalan, ustunli diagrammada xar bir ustun yo'g'onligi ham ko'rinib turadi).

Nazorat topshiriqlari

- 1. Kompyuter grafikasi qanday turlarga bo'linadi?
- 2. Animatsion, namoyish, bezatilgan, kommertsiya, injener va ilmiy grafikalarni xarakterlovchi xususiyatlari nimalardan iborat?
- 3. Grafik tasvirning qanday asosiy turlari mavjud?
- 4. Grafiklarning qanday asosiy ko'rinishlari bor?
- 5. Kompyuter grafikasining asosiy qo'llanish sohalari to'g'risida ma'lumot bering?
- 6. Kompyuter grafikasidagi tasvirlar qanday ko'rinishlarda ifodalanadi?
- 7. Ikki o'lchovli grafikaning dasturiy ta'minoti to'g'risida ma'lumot bering?
- 8. Uch o'lchovli grafikaning dasturiy ta'minoti to'g'risida ma'lumot bering?

1.3.2.Kompyuter grafikasining zamonaviy usullari

Mashina grafikasini passiv va interaktiv bo'laklarga bo'lish avvaldan ma'lum. Bundan 20 yil avval ulug'olimlarni, san'at ustalarini, sportchilarni, multiplikatsion filmlar qaxramonlarini (masalan, bo'ri, quyon rasmlari), Albert Eynshteyn rasmi alfavit raqamli chop etuvchi qurilmalardan chiqarish keng tarqalgan edi. Bunda rasm ma'lum nuqtalarga bir xil belgilarni tushirish orqali, rang tafovut esa ba'zi bir joylarda shu belgilarni bir necha marta urib (to'q rang uchun), ba'zi bir joylarda bir marta tushirib (och rang uchun) mashina qog'ozi satxida hosil qilinardi. Tasvirni bunday usulda hosil qilish passiv mashina grafikasiga tegishlidir.

Interaktiv mashina grafikasi (IMG) bu shundayki, bunda tasvirning holati, uning shakli, mazmuni, o'lchamlari va rangi displey ekranida interaktiv qurilmalar yordamida dinamik ravishda uzluksiz o'zgartirilib, boshqarib turiladi.

Zamonaviy shaxsiy kompyuterlarda hosil qilinadigan grafikalar amaliy jihatdan qaraganda hammasi interaktivdir.

Passiv mashina grafikasiga planshetli va barabanli grafik quruvchi qurilmalar yordamida, shuningdek printer, kino va videokameralar yordamida hosil qilinadigan tasvirlar kiritiladi.

Bu qurilmalar yordamida hosil qilinayotgan tasvirga bevosita ta'sir qilib bo'lmaydi. Displey qurilmasi, sichqoncha yordamida kiritish, klaviatura, skaner qurilmalari orqali tasvir hosil qilishda tasvir jarayonini istagancha boshqarish mumkin.

Yuqorida ko'rib o'tilgan hamma tasvir hosil qilish usullarining umumiy tomoni shundaki, bu erda tasvir raqamli protsessor yordamida hosil qilinadi.

Grafik tasvirni hosil qilishni zamonaviy usullari bilan yaxshiroq tanishish uchun kompyuter grafikasining uch usulda – rastrli, vektorli va fraktal usulda hosil qilinishini ko'rib chiqamiz. Bu usullarning asosiy farqi ekran yuzasi bo'yicha nurni haraktlanishining turlichaligidadir.

Vektorli kompyuter grafikasi - bu usulda vektorli displeylardan foydalaniladi. Vektorli qurilmalarda xotirlovchi elektron nurli trubka qo'llanilib, nur ekran bo'yicha berilgan traektoriya bo'yicha bir marta yugurib o'tadi va shu holat ikkinchi buyruq kelmaguncha trubka xotira qurilmasida saqlanib qo'ladi.

Rastrli qurilmalarda tasvir uni hosil qiluvchi nuqtalarning yig'indisi sifatida paydo bo'ladi. (piksel va PEL-lar yigindisi). Rastr - deb gorizontal qatorlarning vaqt

birligidagi yig'indisiga aytiladi. Bunda har bir qator alohida PEL lardan tashkil topadi. Nur ketma-ket har bir qator bo'ylab yugurib o'tadi. Har bir PEL lardan o'tayotganda nurning yorqinlik darajasi o'zgaradi. Displeylar turli rejimda ishlashi mumkin.

Bir qatordagi piksellar sonini ekrandagi qatorlar soniga ko'paytmasi displeyning sezuvchanlik darajasini ko'rsatadi. Sezuvchanlik darajasi qanchalik katta bo'lsa, shunchalik hosil qilinadigan tasvirni sifati ham yaxshi bo'ladi, lekin teskari nisbatda apparatura tannarxi qimmatlashib boradi.

Fraktal grafikaning asosi matematik formula bo'lib, matematik formulalar yordamida tasvirlar hosil qilinadi. Kompyuter xotirasida tasvir shakli emas, balki uning formulasi saqlanadi. Ba'zi hollarda fraktal grafikaning matematik hisoblashlar grafikasi ham deyiladi.

Nazorat topshiriqlari

- 1. Passiv mashina grafikasi deganda nima tushuniladi?
- 2. Interaktiv mashina grafikasi deganda nima tushuniladi?
- 3. Vektor kompyuter grafikasi deganda nima tushuniladi?
- 4. Rastrli tasvir deganda nima tushuniladi?
- 5. Rastrli tasvir deganda nima tushuniladi?
- 6. Shaxsiy kompyuterlarda ishlatiladigan displeylar qanday sezuvchanlikka ega?

Foydalaniladigan adabiyotlar:

- 1. M.Aripov, A.Xaydarov, Informatika asoslari, O'quv qo'llanma, Toshkent, 2006 y.
- 1. T.Rixsiboev, Kompyuter grafikasi, O'quv qo'llanma, Toshkent, 2006 y.

2. Sh.Razzoqov, Sh.Yo'ldoshev, U.Ibragimov, Kompyuter grafikasi, O'quv qo'llanma, Toshkent, 2006 y.

- 3. A.O.Kotsyubinskiy «Risunki na kompyutere» M., 2000g.
- 4. F. Koburn, P.Makkormik «Corel Draw 9» SPB., 2000g.
- 5. A.Tayts «Photoshop 5,5» SPB, 2000 g.

- 6. D.Rayan «Injenernaya grafika v SAPR» M.,1989g.
- 7. Fyodorenkov, Kimaev «Auto CAD 2002» M., 2001g.
- 8. D.Disalen «Auto CAD programmirovanie» M., 1992g.

1.4. Kompyuter grafikasining operatsion tizimlari 1.4.1. Kompyuter grafikasi operatsion tizimlari haqida umumiy ma'lumotlar va ularning tasnifi

Operatsion tizim deganda kompyuter resurslarini boshqarish, amaliy dasturlarni ishga tushirish va ularni tashqi qurilmalar va boshqa dasturlar bilan hamkorlikda ishlashini ta'minlash hamda foydalanuvchini kompyuter bilan muloqatini ta'minlashni amalga oshiruvchi dasturiy vositalar majmui tushuniladi. Bunda resurs deganda kompyuterning tarkibiy qismlari - mikroprotsessor, tezkor yoki tashqi xotira, tashqi qurilmalar, dasturlar, ular tomonidan beriladigan imkoniyatlarni tushunish kerak. Har bir kompyuter operatsion tizim bilan ta'minlanib, u mashina ulanganda har doim yuklanadi. U foydalanuvchi uchun hisoblash tizimi bilan qulay muloqot (interfeys) usulini ta'minlaydi. Bunda dastur va foydalanuvchi interfeysi bo'lishi mumkin.

Dastur interfeysi - qurilmalar va dasturlarni hisoblash mashinasida birgalikda ishlashini ta'minlovchi vositalar majmuidir.

Foydalanuvchi interfeysi - foydalanuvchini dastur yoki kompyuter bilan birgalikda ishlash dasturiy va apparat vositalaridir.

Kompyuter grafikasi operatsion tizimi ko'p masalali, ko'p darchali, foydalanuvchining grafik interfeysli tizimli muhitdir. U MS DOS operatsion tizimi ustidan qurilgan grafik qobiq bo'lib, odatda MS DOS dan ishga tushiriladi.

Ko'pchilik operatsion tizimlar avvalgi kamchiliklarni tuzatish va yangi imkoniyatlarni qo'shish orqali o'zgartiriladi va takomillashtiriladi. Vorislikni saqlab qo'lish maqsadida operatsion tizimning yangi turlanishi qaytadan nomlanmasdan versiya nomini oladi. Operatsion tizim versiyalari odatda 6.00, 7.00, 3.1, 2.1, 3.5 va sho'nga o'xshash o'nli kasr ko'rinishida belgilanadi. Bunda nuqtagacha bo'lgan

sonning ortishi operatsion tizimga jiddiy o'zgarishlar kiritilishidan, biroz o'zgartirishlar (masalan, faqat xatorlarni to'g'rilash) kiritilganini aks ettiradi. Versiyaning asosiy raqam soni qancha katta bo'lsa tizim ham shuncha ko'p imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Operatsion tizimlar quyidagicha tasniflanadi:

bir vaqtda ishlaydigan foydalanuvchilar soniga ko'ra: bir foydalaniluvchilik, ko'p foydalaniluvchilik;

tizim boshqaruvida bir vaqta bajarilidagan jarayonlar soni bo'yicha: bir masalali va ko'p masalali;

operatsion tizim kodining xonaliligi bo'yicha: 8 xonalik, 16 xonalik, 32 xonalik va 64 xonalik;

interfeys turiga ko'ra: buyruqli (matnli) va ob'ektga mo'ljallangan (grafikli);

foydalanuvchining kompyuterga kira olish turiga ko'ra: paketli ishlash, vaqtni bo'linishi va real vaqt.

resurslardan foydalanish turiga ko'ra: tarmoqli va lokal.

Hozirgi vaqtda quyidagi operatsion tizimlar teng tarqalgan:

1.Microsoft firmasining diskli operatsion tizimi (MS DOS), u 1981 yilda IBM PC kompyuterining paydo bo'lishi bilan yaratilgan. Operatsion tizimning bu oilasi birmasalali bo'lib, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Kompyuter bilan muloqot foydalanuvchi tomonidan kiritiladigan buyruqlar yordamida amalga oshiriladi;

Tizimning modulligi, tizimni boshqa kompyuterlarga o'tkazilishini osonlashtiradi;

Tezkor xotiraning nisbatni kichik hajmi (640 Kbaytgacha) bilan ishlash.

DOS operatsion tizimining muhim kamchiligi ruxsatsiz kirishdan himoya qilish vositalarining yo'qligidir.

2.OS/2 operatsion tizim oilasi 1987 yil shaxsiy kompyuterlarning yangi PSG'2, AT oilalarini yaratilishi munosabati bilan IBM firmasi tomonidan ishlab chiqilgan.

OS/2 ko'p masalali ikkinchi avlod operatsion tizimidir. U 32 xonali, grafikli, ko'p masalali IBM PC bilan moslashtirilgan operatsion tizimdir. Bu tizim bir necha

amaliy dasturlarni parallel ishlashini va aytni paytda, bir dasturni ikkinchisidan hamda operatsion tizimni unda ishlayotgan dasturdan himoyaslashni tashkil qilish imkoniyatlarini beradi. OS/2 operatsion tizim DOS tizimi bilan moslashtirilgan bo'lgani uchun ma'lumotlardan DOSda ham, OS/2da ham hech qanday o'zgartirishlarsiz foydalanish imkoniyatini beradi.

OS/2ni bir necha o'zgartirilgan variantlari mavjud: OS/2 Warp 3.0; OS/2 Warp Connect; OS/2 Warp Server/

OS/2 ning, asosiy kamchiligi - ilovalarning kamligi, MS DOS yoki WINDOWSga qaraganda bu tizimni kamroq ommoboplikka olib kelgan.

3. UNIX oilasiga mansub operatsion tizim-32 xonali, ko'p masalali. Bu oilaning eng kuchli tomoni shundaki, birgina tizimning o'zi turli xil kompyuterlarda - superkompyuterdan to shaxsiy kompyutergacha foydalaniladi.

DOS va WINDOWS uchun yaratilgan ko'pgina amaliy dastur ilovalari UNIXda xam foydalanilishi mumkin.

4. Real vaqt operatsion tizim oilasi tizimning ma'lum kafolatlangan ta'sir vaqtida ega. Bu tizim asosan ASUTP da, uzluksiz ishlab-chiqarish va jarayonlarda qo'llaniladi. Real vaqt operatsion tizimlari ichida keng tanilganlari - RTMX, AMX, OS-9000 va boshqalar bo'lib, DOS va UNIX tizimlari bilan moslashtirilgan.

5. Windows oilasi operatsion tizimi Microsoft firmasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ko'p masalali, qulay grafik interfeysi bilan ta'minlangan.

1.4.2. Kompyuter grafikasi operatsion tizimlari tuzilishi va tarkibiga qo'yiladigan asosiy talablar

Hozirgi vaqtda kompyuter grafikasi operatsion tizimlarining turli xillari mavjud bo'lib, foydalanuvchi ularni ishlatayotganda uning tarkibi va tuzilishiga muhim talablar qo'yadi.

Ma'lumki, mukammal tizim bo'lmaydi, ularning har biri o'zining kamchiligi va afzalliklariga ega. Uni tanlashda foydalanuvchi o'zining talablarini aniq ifodalab,

tanlagan tizim asosida o'zining masalasini samarali echilishini ta'minlashi kerak. Operatsion tizimlarga qo'yiladigan bu talablarga quyidagilar kiradi:

qanday tashqi qurilmalar bu operatsion tizimni ishonchliroq va samarali qo'llab quvvatlaydi;

kompyuter grafikasi operatsion tizimi foydalanuvchi ehtiyojini qanchalik to'la qondira olishi, ya'ni tizimning asosiy funktsiyalari nimalardan iboratligi;

operatsion tizim foydalanuvchi bilan qanday usulda muloqot qilishi, ya'ni uning interfeysini qanchalik qulay, tushunarli, ko'rimli va odatiy;

tizimda ma'lumot beruvchi vositalar, o'rnatilgan ma'lumotnomalarni va boshqalar borligi;

tizimning ishonchliligi, ya'ni foydalanuvchining xatolarida, uskunalarning buzilishiga chidamliligi;

operatsion tizimning tarmoqlar tashkil qilishga beradigan imkoniyatlari;

kompyuter grafikasi operatsion tizimi boshqa operatsion tizimlar bilan moslashuvchanligi;

operatsion tizim amaliy dasturlar ishlab chiqish va foydalanish uchun qanday asbob vositalariga egaligi;

tizimda har xil milliy tillarni qo'llab-quvvatlay olishi;

operatsion tizim bilan ishlaganda qanday zamonaviy amaliy dasturlar paketidan foydalanish mumkinligi;

berilgan tizimda axborotlar hamda tizimni o'zini himoyalanishi qanday amalga oshirilishi.

Shu bilan birga kompyuter grafikasi operatsion tizimini o'zi o'z navbatida shaxsiy kompyuterning apparat vositalariga ham qattiq talablar ko'yadi. Kompyuter grafikasining zamonaviy tizimlari muvaffaqiyatli ishlashi uchun quyidagilar zarur:

protsessorning 486 modeli va undan yuqorisi;

4 MG baytdan kam bo'lmagan tezkor xotira (odatda 8 MG bayt, yaxshisi 16 MG bayt talab qilinadi);

videoadapterning moslashuvchanligi;

qattiq diskda zarur bo'lgan bo'sh joylarni bo'lishligi, 60, 90 MG bayt bo'lishi.

Microsoft Windows ko'p masalali, ko'p darchali tizimli muxitdir, foydalanuvchining rivojlangan grafikli interfeysni bilan ta'minlangan tizim muhitidir. MS DOS operatsion tizim ustidan tuzilgan grafikli qobiqdir. Bu qobiqning grafikli interfeysi foydalanuvchi uchun komfort sharoit yaratadi va dastur va ma'lumotlar bilan ularning grafik tasviri orqali muloqot qilish imkoniyatini beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Kompyuter grafikasining operatsion tizimi deganda nima tushuniladi?

2. KGOT qanday asosiy belgilar bo'yicha guruxlarga bo'linadi?

3. Operatsion tizimlarning qanday asosiy turlari mavjud?

4. KGOTning strukturasiga va tarkibiga qo'yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?

5. MS DOS qanday asosiy funktsional qismlardan tashkil topgan?

6. Fayl tizimi nima degani?

7. Tashqi qurilmalar drayverining asosiy vazifasi nimadan iborat?

8. Microsoft Windows ning asosiy grafik vazifasi nimalardan iborat?

9. Microsoft Windows ning asosiy grafik imkoniyatlari qanday standart ilovalarda ifodalangan?

II BOB. COREL DRAW VEKTORLI GRAFIK MUHARRIRI

2.1. Corel DRAW grafikli dasturida ishlash asoslari

2.1.1. Corel DRAW dasturida ishlash asoslari va uni ishga tushirish

Har qanday hajmdagi axborotlar inson tomonidan uning ko'rish kanallari orqali qabul qilinganda yaxshi o'zlashtiriladi, *masalan*, bolalikdagi rasmli kitoblaringiz sizga ko'proq yoqqan. Katta hajmdagi axborotlarni ba'zan boshqa shaklda qabul qilish qiyinroq. Masalan biror kompaniyaning kunlar bo'yicha bir yillik aktsiyalarining kursi ko'rsatilgan jadvalni grafik asosda tuzilgan bo'lsin. Bunda kursning bir yoqlama o'zgarish grafigi darhol ko'rinadi, lekin ularni jadvaldan anglash uchun vaqt va malaka talab qilinadi. Shuning uchun grafik ma'lumotlarning ulushi har qanday turdagi kasb bilan bog'liq faoliyatda qat'iy o'smoqda.

Shunday ekan *tasvirlar* bilan ishlaydigan vosita va bu vositalar bilan to'g'ri ishlay oladigan mutaxassislar talab qilinadi. Ehtiyoj doim taklifni keltirib chiqaradi, shuning uchun grafik tasvirlarni avtomatlashtirishga mo'ljallangan dastur ta'minotlar bozori juda turli xil va kengdir. **Corel** nomi bilan ataluvchi *Kanada* firmasining dasturlar ta'minoti bilan shug'ullanuvchi **CorelDRAW** so'zsiz shu peshqadamlardan biri hisoblanadi. **Corel** firmasining dasturlar ta'minoti asosini tashkil etuvchi **CorelDRAW** 11 2002 yilning avgustida ishlab chiqarildi. U reklama mahsulotlarini ishlab chiqarishda, nashrlarni tayyorlashda, hamda Web sahifalari uchun tasvirlarni yaratishda katta imkoniyatga ega.Sho'nga qaramasdan **vektorli grafika** bilan ishlaydigan dunyo bo'yicha peshqadam dasturlar mavjud. Shulardan biri – **Adobe Illustrator** grafik dasturi. Lekin **CorelDRAW**, **Adobe Illustrator** dan qo'lishmaydi, u ko'p parametrlar bo'yicha undan ustun ham keladi.



Corel DRAW (*Korel dro*) – bu grafikli dastur bo'lib, uning yordamida vektorli tasvirlarni, grafikli matnlarni, xamda sizning tassovuringizdagi barcha ijodiy goyalaringizni amalga oshirishga yordam beradi. **CorelDRAW dasturida ishlash** asoslari: 1.Nuqtali va vektorli tasvirlar;2. Corel DRAW ni ishga tushirish. 3.Yangi hujjatni yaratish.4. Hujjatni ochish va yopish. 5. Hujjatni saqlash. 6.Sahifaning parametrini o'zgartirish.

Corel DRAW dasturi ishlaydigan barcha tasvirlar ikki sinfga bo'linadi: **nuqtali** *va* **vektorli**. Vektorli grafikada tasvirning asosiy elementi sifatida **chiziq** qarladi.Chiziq sifatida to'g'ri chiziq bo'lishi mumkin. *Rastrli grafikada* bunday chiziqlar nuqtalar (piksellar) yordamida yaratilsa, *vektorli grafikada* esa tasvirlar yaratishda nuqtaga nisbatan umumiyroq bo'lgan *chiziqlardan* foydalaniladi va shuning hisobiga tasvirlar aniqrog' bo'ladi.

Vektorli grafikaning ixtiyoriy tasviri chiziqlardan tashkil topadi va oddiy chiziqlardan murakkablari hosil qilinadi. Vektorli grafikaning matematik asosini geometrik figuralarning xossasini o'rganish hosil qiladi. Vektorli tasvirlarni kompyuter xotirasida ifodalanishi nuqtaliga qaraganda murakkabroq. Nuqtali tasvirning kamchiligi – kompyuter xotirasida ularni saqlash katta joy talab etiladi. Nuqtali tasvirlar bilan yuqori aniqlikda ishlashda, ularga mos fayllarning o'lchami yuzlab megobaytlarni tashkil etadi. Ko'pincha, bunday katta ob'ektlar bilan ishlaganda zamonaviy kompyuterlarning tezligi etmay qo'ladi. Vektorli tasvir bilan ishlash mutloqa oson. Uni katta yoki kichik qilish uchun, faqat uni boshqaradigan tasvir parametrini o'zgartirish mumkin. Bunda vektorli tasvir faylining o'lchami bir baytga ham oshmaydi.

Kiritilgan o'zgartirishlar tasvirning aniqligiga ta'sir etmaydi. 1-rasmda kattalashtirilgan nuqtali va vektorli tasvirlarning natijasi tasvirlangan.



1-Rasm. Vektorli tasvir (chapda), nuqtali tasvirdan (o'ngda) farqli ravishda kattalashtirilganda aniqligi yo'qo'lmagan.

Corel DRAW ni ishga tushirish. Corel DRAW 12 ni grafik muxarririni ishga tushirish uchun Pusk tugmasiga kirib, Prgrammo' buyrug'i bo'limi tanlanadi, so'ng ro'yxatdan Corel DRAW 12 buyrg'i berildai yoki Windows XP ish stolida uning yorlig'i ustida sichqoncha tugmasi ikki marta bosiladi. Dastur yuklangandan so'ng ekranda CorelDRAW12 ning 2-rasmda tasvirlangan bosh oynasi paydo bo'ladi.

	DDAW 42 FD							
E Corei	DRAW 12 - [PHCyHOR1]							
Фай	іл Редактировать Показат	ь Размещение Компоно	вать Эффекты	Битовые изображения	Текст – н х			
NHC.	трументы Окно Поноць							
50	88 × 6 6 7 7 7	2 - 副 圖 風 • 殘 [100%					
A4	► 10 210.0 mm	🚝 🔲 🕮 Единица	м: мил 🕶 🗣	2,54 mm 😂 💁 6.35 mm				
÷.	200 100		100 2	300 300	400 ниллинетры			
K. 8.	1			_				
9	Меню сатри							
×.	Стандарт ускун	алаар Чогнили	ш сахифаси	Атрубта	ар панели			
🗠 📄	паньли		•••					
	У скуналар панели							
₩. :								
 	Сахифаларга ўтнин	e l						
	бошкарни элементи	арж						
	Холат сатри			n				
0	/			Ранстар палитра	сн			
	/	L			~			
ALC: NO	/	аница 1	<	(11)	M 14			
×-1.		r		2>	\times			
(126,770;	(126,770; 350,161) Следующий клик для перетягивания/масштабирования; Второй клик для пов 🗿							

2-Rasm. Corel DRAW grafik muharririning ishchi muhiti.

Nazorat topshiriqlari

- 1. Vektorli va nuqtali tasvirlarni farqlab izoxlang
- 2. Corel DRAW dasturi qanday dastur?
- 3. Corel DRAW dasturi qaysi firmaning maxsuli va dastur imkoniyatlarini izoxlang.
- 4. Corel DRAW dasturini ishga tushirish usullarini izoxlang.

2.1.2.Corel DRAW dasturi va uning tashkil etuvchilari bilan tanishish

Corel DRAW muharrir oynasining tuzilishi

• Sarlavha satri.

🔽 СогеlDRAW 12 - [Рисунок1]	
Bu erda: Corel DRAW 12 – dasturning nomi.	
File (Fayl) menyusining buyruqlari quyidagi amallarni bajarishda foydalaniladi: yangi fayl yaratish, mavjud faylni ekranga chiqarish, joylashtirish, yopish, xotirada saqlash, skayner qilish, import yoki eksport qilish, tasvirni bosmaga chiqarish, faylni set yordamida uzatish, operatsiyalarni avtomatlashtirish va nihoyat, Photoshop (3.1-rasm) dasturidan chiqib ketish. Agarda qoʻshimcha qoʻllanmalardan (ImageReady yoki GoLive)dan foydalanmoqchi bo'lsangiz **File > Jumr to** (Fayl > Pereyti v) menyuchasi orqali o'tasiz.

3.2.1-rasm. File menyusi.

Edit menyusi

Edit	
Undo Rectangular Marc Step For <u>w</u> ard Step Bac <u>k</u> ward	quee Ctrl+Z Shit+Ctrl+Z Alt+Ctrl+Z
Fade	Shft+Ctrl+F
Cut <u>Copy</u> Copy <u>Merged</u> Paste Paste Into Clgar	Ctrl+X Ctrl+C Shit+Ctrl+C Ctrl+V Shit+Ctrl+V
C <u>h</u> eck Spelling Find and Replace Te <u>s</u> t.	
Fill <u>S</u> troke	
<u>F</u> ree Transform Tr <u>a</u> nsform	Ctrl+T
Define <u>B</u> rush <u>D</u> efine Pattern Define Cust <u>o</u> m Shape	
Pu <u>rg</u> e	•
Color Settings Preset <u>M</u> anager Prefere <u>n</u> ces	Shft+Ctrl+K

menyusi.

Edit (Pravka) Tuzatish (3.2-rasm) menyusi yordamida quyidagi amallar bajariladi: tasvirlarni muharrirlash buyruqlari: nusxalash, transformatsiya qilish (koʻrinishini oʻzgartirish), qo'yish va tasvir ranglarini qaytadan aniqlash, berilgan shakldagi va oʻlchamdagi kistlarni yaratish, har xil shakllar va figuralar yaratish. Fade (Oslabit) menyuchasi buyruqlari koʻzlangan amallar effektini kamaytirish (masalan, eng oxirgi ishlatilgan filtrdan tuzatish (kor-rektirovka) yoki chizishni amallar bilan almashtiradi). boshqa Purge (Ochistit) 3.2.2-rasm. Edit menyuchasi buyruqlari xotirani tozalaydi. Yanada Edit menyuchasi yordamida Color Settings (Xarakteristiki tsveta) oynasini ochib. Preset (Menedjer muloqot Manager nastroek)dan Preferences (Ustanovki)dan foydalanib va ranglarni oʻzgartiradi.

Image menyusi

Image (Izobrajenie) Tasvir menyusining Mode (Rejim) menyuchasi yordamida (3.3-rasm), tasvirlar sakkizta imkoniyatning biriga oʻtkazilishi mumkin. Adjustments (Korrektirovki) menyuchasi tasvir ta'sirchanligi (toni), to'yinganligi, ravshanligini o'zgartiradi. Image Size (Razmer izobrajeniya) Tasvir hajmining menyuchasi yordamida fayl hajmini, tasvirni ajrata olishni, oʻlchamlarini oʻzgartira olish imkoniyatiga ega. Canvas Size (Razmer xolsta) muloqot oynasi tasvir joylashgan ishchi maydon oʻlchamini oʻzgartirganda ishlatiladi.



3.2.3-rasm. Image

3.2.2. Layer, Select, Filtr, View, Window, Help menyulari

Layer (Sloy) Qatlam menyusida joylashgan buyruqlar (3.2.1rasm) qatlamlarni qoʻshish, nusxalash, oʻchirish, oʻzgartirish, guruhlash, stekda joylashgan tartibni oʻzgartirish, oʻzaro bogʻlangan qatlamlarni boshqarish, qatlamlarni biriktirish, maskani qoʻshish va tasvirni bitta qatlamga aylantirish amallarini bajaradi. Buyruqlarni bajarish tezligini oshirish uchun Layers (Sloi) palitrasidan foydalansa maqsadga muvofiq boʻladi.

Select menyusi

Select (Vo'delit) ajratish (3.2.2-rasm) menyusidagi All (Vse) buyrug'i yordamida hamma qatlamlar ajratiladi. Deselect (Snyat vo'delenie) Ajratishni bekor qilish buyrug'i esa teskari amalni bajarib, ajratishni bekor qiladi. Reselect (Vosstanovit vo'delenie)

Ajratishni tiklash buyrugʻi esa Deselect buyrugʻi bilan ajratishni bekor qilishni orqaga qaytarib avvalgi holini tiklaydi.

3.2.3-rasm. Layer menyusi



Layer Ne<u>w</u> Color Range (Diapazon tsvetov) buyrugʻi ranglarni hisobga olgan holda ajratadi. Menyuning boshqa buyruqlari esa ajratilgan soha chegarasini kengaytiradi, siqadi, tekislaydi yoki rastushevkalaydi va ajratilgan sohalarni kanallarda saqlaydi yoki kanallardagi sohalarni yuklaydi.

All Ctrl+A
Deselect Ctrl+D
Reselect Shit+Ctrl+D
Inverse Shft+Ctrl+I
<u>C</u> olor Range
<u>F</u> eather Alt+Ctrl+D
<u>M</u> odify ►
Grow
Simila <u>r</u>
<u>I</u> ransform Selection
Load Selection
Save Selection

3.2.4-rasm. Select menyusi

Filtr menyusi

Filtr (Filtr) menyusi tasvirlarni va guruhlangan tasvirlarni muharrirlashda ishlatiladigan filtrlarning keng diarazonini oʻz ichiga oladi. Digimarc (Didjimak) filtri inson koʻziga koʻrinmaydigan mualliflik belgisini tasvirlarga qoʻyib beradi (3.6-rasm).

Filter	
Last <u>F</u> ilter	Ctrl+F
E <u>s</u> tract	Alt+Ctrl+X
Liquify	Shft+Ctrl+X
<u>P</u> attern Maker	Alt+Shft+Ctrl+X
Artistic	۱.
Blur	
Brush Strokes	
Distort	►
Noise	►
Pixelate	•
Render	
Sharpen	
Sketch	
Stylize	
Texture	
Video	۰.
Other	►
Digimarc	•

3.2.5-rasm. Filter menyusi

Oldingi versiyalaridan farqi shuki, bu versiyada menyuga Image menyusining ikkita buyrug'i joylashtirilgan. Extract (Izvlech) buyrug'i murakkab sohani ajratish uchun ishlatiladi. Liquify (Iskazit) buyrug'i esa, tasvirning nuqtalarini berilgan yo'nalishda siljitadi.

View menyusi

View (Vid) menyu buyruqlari (3.2.6-rasm), ekranda nima tasvirlangan, nima tasvirlanmagan, shularni nazorat qiladi. Gamut Warning (Preduprejdenie o gamme) buyrugʻi toʻrtta rangli bosmada chiqmaydigan ranglarni ajratib beradi. Proof Setup (Ustanovki probnogo otpechatka) menyucha buyruqlari tasvir bosmaga qanday holda chiqarilayotganini ekranda koʻrsatib beradi. View menyucha buyruqlari tasvir masshtabini boshqaradi, shu bilan birga ekranga chizgʻichni, koordinatorni, yordam-chi chiziqlar va sohalarni chiqaradi.



3.2.6-rasm. View menyusi

Window menyusi

Window (Okno) menyu buyruqlari (3.2.7-rasm) har xil palitralarni koʻrinmas koʻrinadigan holga keltiradi. Bu menyuda ochilgan tasvirlar roʻyxati ham joylashgan boʻlib, xohlaganini joriy qilishi mumkin.

Windows oreratsion sistemasida ishlaganda bu menyu yordamida oynani (holat satrini) olib qoʻyish (oʻrniga qoʻyish) amallarini bajarish mumkin.



3.2.7-rasm.Window menyusi

Help menyusi

Help (Pomoh) menyusining buyruqlari Photoshop dasturining qoʻllanmasini interaktiv koʻrinishda koʻrish, Adobe kompaniyasi haqida oxirgi yangiliklarni olish, Adobe Online yoki ekrandagi amalni (3.2.8-rasm) bajarish haqida yoʻriqnomani olish uchun internet tizimiga ulanishni bajaradi.



3.2.8-rasm. Help Window menyusi.

Agarda avvalgi Photoshop versiyasi ustiga yangisi yozilsa, palitralar joylashishi avvalgi versiyanikiga mos keladigan boʻladi.

3.3.Photoshop dasturida asboblar paneli va palitralar.3.3.1. Photoshop dasturida tanlash asboblari

Dasturda ishlash uchun yordamchi ish qurollar soxasidagi tugmalar bilan tanishaylik. U ekranning chap tomonida joylashadi. Agar u ekranda yo'q bo'lsa u xolda **Windows (Okna)** menyusidagi **Panel Instrumentov - Toolbox** buyrug'ini ishga tushirishimiz kerak.

[M] - ish soxasidagi aktiv qatlamda to'rtburchak soxani tanlash.

Aylana soxa tanlash - Elliptical marquee (ellipticheskaya oblast) - [M] - ish soxasidagi aktiv qatlamda ellips soxani tanlash.

Aloxida satr soxa tanlash - Single row marquee (stroka pikseley) - [M] - ish soxasidagi aktiv qatlamda bitta satrga teng soxani tanlash.

Aloxida ustun soxa tanlash - Single column marquee (stolbets pikseley) - [M] - ish soxasidagi aktiv qatlamda bitta ustunga teng soxani tanlash.

Tanlangan soxaga qo'shimcha soxa qo'shish uchun SHIFT tugmasini bosib turib ushbu tugmadan qayta foydalanamiz. Agar esa ALT tugmasidan foydalanib soxa tanlasak, u xolda tanlangan soxadan olib tashlash ma'nosini bildiradi.

Xususiyatlar satrida quyidagilar aktiv bo'ladi:

- SHIFT va ALT tugmalar xarakatlariga o'xshash xolatlarni tanlash
- Feather soxasi yordamida tanlangan soxa chegaralarini qalinligi.

Style - soxasi yordamida tanlash xolatini tanlaymiz. Normal - cheksiz soxa,
Constrained Aspect Ratio - yonlari ko'rsatilgan proportsiyalardagi soxa tanlash, Fixed size - yonlari ko'rsatilgan kattaligidagi soxa tanlash.

Lasso - Lasso (Lasso) - [L] - ixtiyoriy soxani tanlash. Agar tanlaganimizda ALT tugmasini bosib tursak, u xolda bizning lasso ko'pburchak lassoga o'hshab soxa tanlaydi va ALT tumasini bosganimizda tanlangan soxa berkiladi.

Ko'pburchak lasso - Polygonal lasso (Mnogougolnoe lasso) - [L] - ko'pburchak soxani tanlash. Tanlangan soxani berkitish uchun yoki sichqoncha bilan ikkitali bosish kerak, yoki CTRL tugmasini bosib qo'yvorishimiz kerak bo'ladi.

Magnit lasso - Magnetic lasso (Magnitnoe lasso) - [L] - o'xshash ranglar bo'yicha soxa tanlash. Kompyuter tanlagan nuxtani bekor qilish uchun Backspace tugmasini bosish kerak.

Tanlangan soxaga qo'shimcha soxa qo'shish uchun SHIFT tugmasini bosib turib ushbu tugmadan qayta foydalanamiz. Agar ALT tugmasidan foydalanib soxa tanlasak, u xolda tanlangan soxadan olib tashlash ma'nosini bildiradi.

Xususiyatlar satrida quyidagilar aktiv bo'ladi:

- SHIFT va ALT tugmalar xarakatlariga o'xshash xolatlarni tanlash
- Feather soxasi yordamida tanlangan soxa chegaralarini qalinligi
- Anti-Aliased optsiyasi tanlangan soxaning chegaralar rangini ko'zga ko'rinmas qilib bir-biriga moslash
- Width tanlangan soxaning chegaralar qalinligini o'zgartirish
- Edge Contrast magnit lassoning sezguvchanligini o'zgartirish
- Frequency magnit lassoning avtomatik ravishda qo'yiladigan nuqtalar o'rtasidagi masofa

Sexrli tayoqcha - Magic wand (Volshebnaya palochka) - [W] - bir xil rangli soxani tanlash.

Tanlangan soxaga qo'shimcha soxa qo'shish uchun SHIFT tugmasini bosib turib ushbu tugmadan qayta foydalanamiz. Agar ALT tugmasidan foydalanib soxa tanlasak, u xolda tanlangan soxadan olib tashlash ma'nosini bildiradi.

Xususiyatlar satrida quyidagilar aktiv bo'ladi:

- SHIFT va ALT tugmalar xarakatlariga o'xshash xolatlarni tanlash
- Tolerance soxa tanlashda sexrli tayoqchaning sezguvchanligini o'zgartirish
- Anti-Aliased optsiyasi tanlangan soxaning chegaralar rangini ko'zga ko'rinmas qilib bir biriga moslash
- **Contiguous** optsiyasi tanlangan soxa bitta umumiy bo'lishini yoki bir nechta qismdan iborat bo'lishini ta'minlaydi
- Use All Layers optsiyaci sexirli tayoqchaning soxa tanlaganligi hamma qatlamlarga tegishli yoki faqat asosiy bo'lgan qatlamga tegishligini ta'minlaydi

Tanlangan soxa ustidan biz xar xil xarkatlarni bajarishimiz mumkin. Masalan xotiraga qirqib olib yoki nusxa olib yangi qatlamga uni qo'yishimiz mumkin. Yoki uni xajmini o'zgartirish va aylantirishimiz mumkin. Va nixoyat uni ish soxa bo'ylab siljitishimiz mumkin.

3.3.2. Photoshop dasturida ob'ektlar ustida ishlash asboblari

Xarakatlanuvchi - Move (peremehenie) - [V] - tanlangan soxani ish soxa bo'ylab xarakatlantirish.

Agar ALT tugmani bosib xarakatlanishni boshlasak, u xolda tanlangan soxaning nusxasi olinib u xarakatlanadi. Agar SHIFT tugmasidan foydalansak, u xolda tanlangan soxa faqat vertikal va gorizontal xarakatlanadi. Tanlangan soxani klaviaturadagi yo'nalish strelkalari yordamida xam xarakatlantirish mumkin, shunda xar bitta strelka bosilganida, tanlangan soxa 1 pikselga siljiydi.

Xususiyatlar satrida quyidagilar aktiv bo'ladi:

- Auto Select Layer soxasi sichqoncha yordamida aktiv bo'lmagan qatlamni aktiv qilish.
- Show Bounding Box tanlangan soxa chegaralarida ramka xosil qilish. Ushbu ramka yordamida rasmni chuzish va aylantirish mumkin bo'ladi.

Kadrlovchi - Crop (Kadrirovanie) - [C] - faylning kerak emas qismlarni qirqib olib rasmni kichkinalashtirish. Buning uchun kerakli soxani tanlab ENTER tugmasini bosamiz, agar tanlanishni bekor qilmoqchi bo'lsak ESC tugmasini bosishimiz kerak.

Bo'lish pichoqchasi - Slice (Narezka) - [K] - tasvirni bir nechta qismga bo'lib chiqib uni Internetda qismlarga bo'lingan xolatda chiqarish uchun tayyorlab qo'yadi.

Bo'linishlarni sozlash - Slice select (Vo'bor moduley) - [K] - bir nechta qismga bo'lingan tasvirni sozlash (bo'laklarni chizish).

Xususiyatlar satrida quyidagilar aktiv bo'ladi:

- Style soxasi yordamida tanlash xolatini tanlaymiz. Normal cheksiz soxa, Constrained Aspect Ratio - yonlari ko'rsatilgan proportsiyalardagi soxa tanlash, Fixed size - yonlari ko'rsatilgan kattaligidagi soxa tanlash.
- Show Slice Numbers qismlarni nomerlarini ko'rsatish yoki ko'rsatmaslik
- Line Color bo'linish chegaralarini rangini o'zgartirish
- Promote To User Slice bo'linishlarni avtomatik gorizontal va vertikal davomlash
- Slice Options tugmasi bo'lakchaning xususiyatlarini o'zgartirish va sozlash.

3.4. Photoshop dasturidagi ranglar

3.4.1. Photoshop dasturida rang tushunchasi

Photoshor dasturidagi tasvirlar ekranda rastr koʻrinishida beriladi, ya'ni toʻgʻritoʻrtburchak toʻrning tugunlarida joylashgan har xil rangdagi nuqtalarning yigʻindisi. Piksel deb nomlanadigan nuqtalar qandaydir bir rangni yoki soyani beradi. Tasvirning bitta qismini kattalashtirib riksellarni muharrirlash mumkin

Photoshor dasturidagi har qanday rastr koʻrinishidagi tasvir boʻlib hisoblanadi; u skaner yordamida olindimi, boshqa muharrirdan eksrort qilindimi yoki Photoshor dasturida chizish yoki muharrirlash yordamida yaratilganidan qat'iy nazar Rastrtasvirlar bilan ishlovchi dasturlar jivorisli, fotografiya yoki fotoreal (ranglar farqi juda kam tasvirlar) tasvirlar bilan ishlaydi. Agarda chizish asboblaridan bittasini tanlagan holda qatlam ustidan kursorni olib oʻtilsa, kursordan oʻtgan riksellar boʻyalgan boʻladi.

RGB va CMYK ranglari

Monitor ekranidan rangli tasvirni olish uchun qizil, yashil va koʻk (Red, Green, Blue – RGB) nurlari ishlatiladi. Agarda bu uch rangni bir-biriga toza holda aralashtirsak u holda oq rangni olamiz (3.4.1-rasm).



Toʻrtta rangli bosmada uchta asosiy boʻyoqlar ishlatiladi: koʻk (S, cyan), rurrur (M, magenta) va sariq (Y, yellow) – 3.4.2-rasmda berilgan.



3.4.2-rasm. CMYK ranglari

Bu ranglarni aralashtirganimizda qoraroq tiniq boʻlmagan rang paydo boʻladi. Toʻq qora rangni olish uchun printerlarda qora siyoh(K, black) bilan kam miqdordagi koʻk, rurrur yoki sariq siyohlar bilan aralashtiriladi.

Monitor ekranidagi ranglarning tasvirlanishi yorugʻlik tushishiga, monitor haroratiga va aylanamizdagi predmetlarning rangiga bogʻliq boʻladi. Shu bilan birga, real hayotdagi ranglar bosmadan chiqarilmaydi, ekranda tasvirlangan hamma rang bosmadan chiqarilmaydi, ba'zi bir ranglar boʻlsa, monitor ekranida tasvirlanmaydi.

Hamma monitorlar RGB modeliga asosan tasvirlanadi, CMYK – rangi esa simulyatsiya qilinadi. Faqat CMYK modelini bosmaga chiqarishda ahamiyati katta. Agarda siz berilgan tasvirni set yordamida uzatmoqchi boʻlsangiz yoki kinoplyonka qurilmasiga bermoqchi boʻlsangiz u tasvirlarning RGB rejimidan CMYK rejimiga oʻtishi uchun bosh qotirmasa ham boʻladi.

Agarda siz bosmaga chiqadigan (gammaga kirmaydigan) rangni tanlasangiz, Color (Tsvet) palitrasidagi undov belgisi chiqariladi.

Shu belgi Info (Informatsiya) palitrasida ham chiqariladi, agarda kursor koʻrsatayotgan riksel rangi gammaga kirmasa.

Photoshor dasturidagi Gamut Warning (Preduprejdenie o gamme) buyrugʻi yordamida bosmaga chiqarilmaydigan ranglarni boshqa rang bilan berish mumkin va keyin Sro'nge (Gubka) asbob yordamida rangning gammasiga oʻtkazib olsa boʻladi.

3.4.2. Rang modellari

Photoshor dasturidagi ranglarni tanlash panelida yoki Color panelidan quyidagi ranglar modelini tanlash mumkin: Grayscale (Polutonovoe izobrajenie), RGB (redgreen-blue – krasnoy zelenoy-siniy), CMYK (cyan-magenta-yellow-black –goluboypurpurno'y-jelto'y-cherno'y) yoki Lab (lightness-a axis-b axis – yarkost i svet na osyax a i b).

Kanallar

Photoshor dasturidagi rasmlar bir yoki bir nechta yarim tiniq holdagi ranglardan tashkil torgan boʻlib, bular kanallar deb ataladi. Masalan, RGB rejimidagi tasvirlar qizil, yashil, koʻk kanallardan tashkil topgan boʻladi. Bu haqda kengroq ma'lumot olmoqchi boʻlsangiz rangli tasvirni ochib, Channels palitrasini sichqoncha bilan Red, Green, Blue elementlarining har biriga alohida chertib koʻrsangiz boʻladi, bunda faqat chertilgan kanal namoyon boʻladi. Keyin RGB (CtrlQ~ tugmalar majmuasi) elementiga chertsak, avvalgi holini tiklaymiz. Agarda kanallar har xil ranglarda berilmagan boʻlsa, u holda Edit > Preferences > Disrlay&Cursors oynasidan Color Channels in Color (Kanalo' v tsvete) ga bayroqcha belgisini oʻrnatish kerak.

Ranglarni korrektirovkalaganda bitta kanalga tegishli boʻladi, faqat oʻzgartirish koʻp kanallarda koʻrsatiladi va olib boriladi, komrozit tasvirlashda (Channels palitrasining eng yuqoridagi elementi) tasvirning hamma kanallariga bir vaqtda ta'sir qiladi.

Maxsus yarim ta'sirchanlik kanallari tasvirning ajratilgan sohasini maska sifatida saqlaydigan alfa kanallar deyiladi va ularni tasvirga qo'shsa bo'ladi (3.56 arasm). Shu bilan birga qiyachiziqli rangli kanalni ham qo'shsa bo'ladi (3.56 b-rasm). Muharrirlash ishlari faqat joriy bo'lgan kanallar bilan olib boriladi.

Kanallar soni qancha koʻr boʻlsa, tasvirning hajmi shuncha katta boʻladi (xotiradan katta joy egallaydi). RGB rejimining uchta kanali bilan (qizil, yashil va koʻk) yarimta'sirchanli rejimning bitta kanaliga nisbatan ush barobar katta hajmga ega boʻladi. Bu tasvir CMYK rejimida esa toʻrt barobar katta diskdan joy egallaydi.

100

Web-grafika

Agarda siz web sayt uchun tasvir yaratayotgan boʻlsangiz, RGB rang modelidan foydalaning. Faqat shuni esda saqlang, RGB rang yoki boshqa model ranglari Web-brauzerning ranglar modeli bilan mos tushmasligi mumkin. Sifatli boʻlgan tasvir natijasini olish uchun Web yoki Visibone palitrasini Swatches palitrasiga yuklang, Web Color Sliders (Polzunki Web-tsvetov) va Color palitrasidagi Make Ramr Web Safe (Web uchun ranglarni kiradigan qilib bering) orsiyalardan foydalaning.

3.5. Adobe Photoshop dasturida tasvirlar bilan ishlash

3.5.1. Brush uskunasi yordamida tasvirga o'zgartirishlar kiritish

Adobe Photoshop tasvir taxrirlagichi yordamida fotosuratlarga qo'shimchalar kiritish, fotosuratdagi dog'larni o'chirish , eski rasmlarni qayta ishlash va tiklash. Rasmlarga matn kiritish qo'shimcha maxsus effektlar bilan boyitish, bir fotosuratdagi elementlarni ikkinchi fotosuratga olib o'tish, suratdagi ranglarni o'zgartirish almashtirish mumkin. Adobe Photoshop imkoniyatlari keng qamrovli bo'lib, u gazeta va jurnallarni turli tuman rasmlar bilan boyitishda juda katta qulayliklar yaratadi.

tasvir Adobe Photoshop taxrirlagichi juda murakkab programmadir. Foydalanuvchilar uning asosiy imkoniyatlaridagina foydalanadilar xolos. Optsiyalar panelida Brush (mo'yqalam) mo'yqalami uslubini tanlash uchun strelkasi ustiga bosiladi (1-rasm). Xar bir piktogramma ustidagi raqamlar mo'yqalamni qalinligini piksellarda ko'rsatadi. Agar siz istalgan mo'yqalam ustiga olib borsangiz shu mo'yqalamning qalinligi va turi xaqida ma'lumot chiqadi. (Boshqa turdagi mo'yqalamlarni tanlash uchun 12chi qismda keltirilib o'tilgan «Mo'yqalamlar kutubxonasini yuklash (Zagruzka biblioteki kistey)»). Mo'yqalam panelini yopish uchun paneldan tashqaridagi ekranning istalgan joyiga bosiladi va avtomatik tarizda panel yopiladi. Mode (Aralashtirish rijimi)(Rejim smeshivaniya))bo'limini tanlanadi, **Opacity** (2-rasm) (Shafofsizlik)(Neprozrachnost)) bo'limini xamda foiz

ko'rsakichida **Brush** (Kist) uskunasi uchun tanlanadi. Agar ko'rsatilgan qisim parametri 100% ni tashkil qilsa mo'yqalam shtrixi pastki piksellarni mutloq qoplaydi.

Brush: 21 - Mode: No	lormal 💽 Opacity: 50%	F
Master Diameter 21 p×	\odot	
<u> </u>	a	
	·	
:	•	
L à		

1-rasm.Mo'yqalam shaklini tanlash paneli

Eslatma: Faqatgina shaffof bo'lmagan qatlamlarni rangini o'zgartirish uchun **Layers** (Qatlam(Sloi)) palitrasidagi **Lock transparent pixels** (Zafiksirovat prozrachno'e tochki) ustiga bayroqchani o'rnatiladi.

				_	_
Mode:	Normal	•	Opacity:	18%	

2-rasm. Opacity parametirini belgilash paneli

Photoshop 7.0 programmasi yordamida siz bir qancha standart mo'yqalamlar yoki o'zingiz o'lchamlari va ko'rinishini kiritgan xolda juda qiziqarli rassomchilik ishlarini amalga oshirishingiz mumkin(3 rasm).

Rasmlar bilan ishlash uchun yangi protsessor o'ta qiziqarli bo'lgan rasmlarni yaratish imkonini beradi. Photoshop 7.0 programmasida standart va avvaldan foydalanuvchi kiritgan rasmlarni nusxalab o'nga sayqal berish shu bilan birga tasvirga xo'l va quruq mo'yqalam usullarida bezak berish mumkin. Mo'yqalam paketiga barg va o'tlarni tasvirini yaratadigan maxsus effekt mo'yqalamlari kitildi. Maxsus original tasvirlarni yaratish uchun skanerdan o'tkazilgan rasm va tekstlarni orqa fon sifatida shaffof ko'rinishda tasvirga kiritish mumkin. Photoshop 7.0 programmasi protsessori faqat yangi tasvir yaratish imkoniyatlar bilan cheklanib qo'lmay balki, boshqaruvning soddalashganligi e'tiborga olingan.



3-rasm. Xar xil turdagi mo'yqalamlar bilan Brush uskunasi bilash chizilgan chiziqlar

Mavjud bo'lgan mo'yqalamni o'zgartirish(Izmenenie suhestvuyuhey kisti)



Photoshop programmasiga qo'shimcha sifatida mo'yqalamlar ombori xam beriladi va siz u erdan istalgan mo'yqalamni tanlab uni xohishingizga ko'ra o'zgartirish (modifikatsiya) qilishingiz mumkin.

1. Optsiyalar panelidan **Brushes** (Mo'yqalam(Kist)) tugmasiga bosiladi undagi menyudan **Brush Tip Shape - sm.** 4 rasm bo'limi tanlanadi.

2. **Diameter** (Diametr) effektni kerakli joygacha cho'ziladi yoki mo'yqalam diametirini kiritiladi (1 dan 999 pikselgacha).

3. Mo'yqalam izi shaffofsizligini belgilovchi **Hardness** (Kattiklik)(Jestkost)) koyfitsentini tanlanadi yoki uni xam foiz miqdori kiritiladi (0-100%gacha).

4. Mo'yqalam qo'ldirgan izlari uzoqligini **Spacing** (Interval) orqali bajariladi (0-999%) foiz miqdorini oshirilgan sari shtrixlar orasidagi masofa kattalashib boradi. Shuningdek bu vazifani kursor yoki mo'yqalam xam bajarishi mumkun, buning uchun **Spacing** (Interval) tugmasidan bayroqni olib tashlashni o'zi kifoya, qanchalik kursorni tez xarakatlantirsangiz shuncha oraliq kattalashadi va aksi (12 bo'limni kar, «Vo'bor optsiy pera» qismi).

Eslatma: Ko'pgina standart o'rnatilgan mo'yqalamlar uchun asosan **Spacing i Diameter** bo'limlarini o'zgartirish mumkin.

5. Mo'yqalam izini doira yoki boshqa ellips ko'rinishlarini belgilash uchun **Angle** (Burchak)(Ugol)) bo'limidan (-180° dan Q180° gacha) qiymatlarni ko'rsatiladi yoki ekranning chap tarafidagi rasmdagi strelkani xoxishga ko'ra joylashtiriladi.

6. Mo'yqalamni sochma yoki tiniqlashtirish uchun **Roundness** (Okruglost) (0-100%) parametrlarini beriladi foiz miqdori ortgani sari nuqta izi tiniqlashadi.

Yangi mo'yqalamni yaratish(Sozdanie novoy kisti)

1. **Brush** (mo'yqalam) menyusidan **New Brush** (Yangi mo'yqalam) buyrug'ini tanlanadi.

2. Mavjud mo'yqalamni o'zgartirish*«Izmenenie sushestvuyushiy kisti»* bo'limidan 2 dan 8 gacha bo'lgan buyruqlarni tanlanadi. Create New Brush (Yangi mo'yqalamni yaratish) bo'limiga bir marta bosiladi va kerakli o'lchamlarni beriladi agar siz ushbu tayyor mo'yqalamni saqlab qo'lmoqchi bo'lsangiz uni nomini kiritasiz va OK tugmasini bosasiz. (Ammo bu Yangi mo'yqalam xech qaysi bibliotekaga kiritilmaydi.) Saqlangan mo'yqalam piktogrammasi tanlash panelida oxirida joylashadi.

Mo'yqalam o'lchamlari oynasi

Tasvirdan iborat bo'lgan mo'yqalamni yaratish(Sozdanie kisti na osnove izobrajeniya)

1. **Rectangular Marquee** (Pryamougolnaya oblast) uskunasini aktivlashtirish uchun klaviaturadan M tugmasini yoki **ShiftQM** tugmalarini bosiladi.

2. Ok fonda berilgan figuralar bilan tasvirni chegarasini belgilanadi(maksimum 1000x1000 pikselgacha).

3. Edit > Define Brush (Pravka > Mo'yqalamni aniqlash) komandasini tanlanadi.

4. Yuqorida aytib o'tilgandek ushbu yangi mo'yqalam nomini kiriting va OK tugmasini bosing. Bu mo'yqalamdan **Brush** (muqalam) menyusi bilan ishlayotganda

foydalanish mumkin. Paydo bo'luvchi mo'yqalam o'lchamlarini **Spacing** (Interval) tugmasidan shtrixlar orasidagi masofani aniqlashtirasiz(1-999%).

5. Belgilangan zonani qaytib o'z xoliga keltirish uchun **CtrlQD** tugmalarini birgalikda bosing.

Mo'yqalamni o'chirish(Udalenie kisti)

1. Muqalam tanlash panelini oching.

2. *Birinchi usul:* Alt tugmasini bosib turib o'chirmokchi bo'lgan mo'yqalam belgilanadi. Bu xarakatni orqaga qaytarish(otmenit) mumkin emas.

Ikkinchi usul: Keraksiz bo'lgan mo'yqalamni ko'rsatiladi va **Delete Brush** (Mo'yqalamni uchurish) buyrug'i tanlanadi (5 rasm).



3.5.2. Background Eraser va Magic Eraser asboblarini ishlatilishi.

Magic Eraser (Mujizaviy o'chirgich) menyusi sichqoncha tugmasi bilan o'chirish imkonini beradi. U siz ko'rsatgan ranga yaqin bo'lgan pikellarni o'chiradi. Buni aksini esa Paint Bucket (Vedro s kraskoy) uskunasi bajaradi. Agar siz shaffofsizlikni 100% dan pastrogini tanlagan bo'lsangiz unda Magic Eraser uskunasi orqali kerakli joylani shaffof ko'rinishga keltirishingiz mumkin.



6. Magic Eraser uskunasining optsiyalar paneli

Background Eraser (fon uchun o'chirgish) asbobi bu fondagi keraksiz joylarni o'chiradi yoki kerakli ranga buyaydi. Bu asbobning ustunligi shundaki u bilan aralash fonlarni yakdil xolatga va o'chirilayotgan zonani yoki chegaralarni xamoxangligini nazorat qiladi.



7-rasm. Background Eraser uskunasining optsiyalar paneli

Qatlamlarni zonalari uygunligi(Stiranie chasti sloya)

1. Xoxlagan qatlamni tanlang. Eraser (o'chirgich) abobi yordamida qatlamdagi keraksiz joylarni o'chirmoqchi bo'lsangiz unda Lock transparent pixels (Zafiksirovat prozrachno'e tochki) bo'limiga bayroqcha o'rnatiladi shunda o'chirilayotgan qatlam undan oldingi qatlamni foniga ega bo'ladi. Agar Lock transparent pixels (Zafiksirovat prozrachnye tochki) bo'limidagi bayroqcha olib tashlansa unda o'chirilgan qism shaffof xolatga o'tadi.

2. Eraser (o'chirgich) uskunasini E tugmasi yoki ShiftQE tugmalarini birga bosib uni ishga tushiriladi.

3. Optsiyalar panelidan **Brush** (Kist) bo'limiga kiriladi va kerakli bo'lgan mo'yqalamni tanlanadi.

Mode (Rejim) bo'limidan kerakli rejimni tanlanadi: u erda **Brush** (mo'yqalam), Pencil (qalam) yoki **Block** (Blok) larni tanlang 8 rasm. Xo'l buyoqni akslantiruvchi Brush (Kist) brash effektini tanlanadi. **Opacity** (Shaffofsizlik) parametrlarini ko'rsatiladi.



8-rasm. Eraser uskunasining optsiyalar paneli

Avtomatik o'chirish rejimi(Rejim avtomaticheskogo stiraniya)

Auto Erase (Avtolastik) o'z o'zidan avtomatik tarizda ishlashga mo'ljalangandir agar siz uning o'z xoxishingizga ko'ra ishlatmoqchi bo'lsangiz quyidagilarni bajarishingiz shart.

1. Kerakli bo'lgan fon rangini tanlang. Bunda **Eyedropper** (Pipetka) uskunasidan rang tashlashda foydalanishingiz mumkin.

2. Kerakli bo'lgan qatlamni belgilang.

3. **Pencil** (Karandash) uskunasi aktivlashtiriladi, buning uchun V tugmasi yoki **ShiftQV** tugmalari birgalikda bosiladi.

4. Optsiyalar panelidan Auto Erase (Avtolastik) uskunasi ustiga bayroqcha o'rnatiladi.

5. Tasvirga shtrixlar chiziladi. Asosiy pikseldan boshlab kerakli xududgacha kursor tortib boriladi yoki boshqa sizga maqul bo'lgan pikseldan boshlashingiz mumkin.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Brush uskunasi imkoniyatlarini sanab bering.

2. Brush (mo'yqalam)ni o'zgartirsh qanday amalga oshiriladi?

3. Background Eraser buyrug'i nima uchun ishlatiladi?

4. Ob'ekt rangi qanday o'zgartiriladi?

5. **Magic Eraser** (Mujizaviy o'chirgich) ni ishlatish to'g'risda qanday ma'lumotlarni bilasiz?

6. Auto Erase (Avtolastik) ni ishlatish to'g'risda qanday ma'lumotlarni bilasiz?

3.6. Photoshop dasturida matnlar bilan ishlash

3.6.1. Photoshop dasturida matn kiritish uskunasidan foydalanish

Photoshop 7.0 dastursida matn vektor ko'rinishiga ega. Dasturda matn o'zining aniq chegara va konturlariga ega chunki dastur matnlarni ishlatayotganda vektor konturini qo'llaydi. Shu bilan bir qatorda matn xam rasm sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Bu matn printerdan chiqarilishiga qaramay u PDF yoki EPS formatlarida saqlanadi va o'z tinnikligini saqlab qo'ladi.

Photoshop dasturida faqatgina matnlarni kiritibgina emas balki ularni yozilayotgan vaqtida va yozilgandan so'ng xam ularni tusini, rangini, ko'rinishini xamda yo'nalishini o'zgartirish mumkin.

Matnni Yaratish(Sozdanie matna)

Photoshop dastursida matn yozish uchun **Ture** (Tekst) buyrug'i tanlanadi va avtomatik tarzda kerakli joyda o'z maxsus qatlamiga ega bo'lgan fonda yozila boshlaydi. Istalgan paytda uning ko'rinishini o'zgartirish mumkin (masalan: shrift, uslub, kegl, rang, kerning, treking, oraliqdagi interval, to'g'irlash, tekis chiziqlarini

xajmini o'zgartirish mumkin). Bundan tashqari bir matnni o'ziga bir qancha atributlarni kiritish mumkin(1 rasm).

Shu bilan bir qatorda matnning manosini mexanik tarzda o'zgartirish unga xar xil effektlar qo'llash va u joylashgan qatlam ustida bir qancha imkoniyatlarni qo'llash mumkin. Matn qatlami ustida qanday ammalar qo'llash mumkin? Unga filtirni qo'llash, matndan tozalash va rasmlarga to'ldirish mumkin. Bu ammalarni bajarish uchun eng avvalo matn qatlamini **Layer > Rasterize > Ture** (Sloy > Preobrazovat v rastrovo'y format > Tekst) asbobi orqali belgilab undagi komandani tanlash kerak. (1-rasmda eng avvalo uni aktivlashnirib so'ngra filtr va turli qatlam effektlari qo'lanilgan).

(Eslatma: Bitmap, Indexed Color i Multichannel, rijimida yaratilgan matn o'z qatlamiga ega bo'lmaydi va to'g'ridan to'g'ri ekran foniga tushadi va uni taxrirlash imkoniyati yo'qo'ladi.

Turli xildagi matnlar(taxrirlanadigan va taxrirlanmaydigan) ko'rinishlari **Ture** (Tekst), **Layer** (qatlam), **Character** (Shrift), **Paragraph** (Abzats) asboblari va optsiyalar paneli orqali yaratiladi.



1-rasm. Ture asbobining optsiyalar paneli

Taxrirlanadigan matn qatlamini yaratish(Sozdanie redaktiruemogo matnovogo sloya)

1. Eng avvalo Ture (Tekst) asbobini T tugmasini bosish bilan aktivlashtiring.

2. So'ngra matnni joylashtirish kerak bo'lgan ekrandagi qisimni o'lchamlarini sichqoncha orqali belgilanadi (so'zlar va matnlar bir biriga to'qnashib ketmasligi kerak). Yaxshisi xar bir so'zni aloxida qatlamga yoziladi, shunda ularni bir biridan mustaqil ravishda siljitish imkoni qo'lga kiritiladi.

3. Optsiyalar panelida quyidagi ishlar bajariladi:

• **Ture** tugmasiga bosiladi va matnning yo'nalishini ko'rsatiladi (gorizontal, vertikal);

• Shiriftlar oilasini, uslubini kegli tanlanadi;
• Shuningdek Anti-aliased (Moslashtirish) menyusidan matn qatlam chegarasi ko'rsatiladi: Sharp (Tinik) Crisp (qattiq), Stro'ng (kuchli) yoki Smooth (yumshoq). Bu matnni soyasini ko'rinishlarini tubdan o'zgartiradi va tasvirga moslaydi.



2-rasm. Taxrirlanayotgan matn o'zgartirishlar va effektlar qo'lanilgan.

Alignment (Vo'klyuchka) tugmalaridan biriga bosiladi va kerakli bo'lgan matnni yozilish chegarasi ko'rsatiladi (o'ngdan, chapdan, o'rtadan)



3-rasm. Taxrirlanayotgan matn o'zgartirishlar va effektlar qo'lanilgan.



4-rasm. Matnni tekslash usullari

3.6.2. Matnga rang berish va taxrirlash.

Optsiyalar panelidan matnni rangini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari matn rangini **Swatches** (Obraztsy) va **Colors** (Tsveta) palitralaridan xam belgilash mumkin.

1.Ekrandagi oynaga matn kiritiladi.

2.Yangi matn qatlamini yaratish uchun **Enter** tugmasi bosiladi agar sizga boshqa qatlam kerak bo'lmasa **Esc** tugmasi bosiladi.

Agar siz matnlar bilan ishlayotganda kompyuter o'chib qo'laversa yoki tezligi kichiklashsa unda ochilgan qolgan kerak bo'lmagan shrift oynalarini yoping shunda programma tezligi o'z xoliga keladi.

Xar safar matn yozishda yangi qatlamdan foydalaganingiz maqul va xatolikka ega bo'lgan qatlamlarni o'chirib tashlang.

Matnni taxrirlash. Matnni o'zgartirishdan oldin matn faollashtiriladi va matndagi so'z, jumla va xarfni belgilab o'zgartirish kiritiladi, shuningdek matnni belgilash uchun matn ramkasini ustiga bosish kifoya.

Tekstni masshtablash(Masshtabirovanie matna)

Horizontal Scale (Masshtab po gorizontali) va **Vertical Scale** (Masshtab po vertikali) buyruqlaridan matnni joylashish shaklini o'zgartirish uchun foydalaniladi. Bir xil to'g'ri ko'rinishdagi masshtablash uchun quydagi ammalarga rioya qilinadi:



character character character character

5- rasm. Mastabni kiritish 6-rasm. Masshtabi o'zgartirishdan keyngi xolatlar

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

- 1. Photoshop dastursida matn konturini o'zgartirish uchun qaysi buyruqlardan foydalaniladi.
- 2. Qaysi uskuna yordamida Photoshop dastursida matinlarni yaratish mumkin.
- 3. Gradient (Gradient) asbobi qaysi tugmalar yordamida ishga tushiriladi.
- 4. Taxrirlanadigan matn qatlamini yaratish qanday amalga oshiriladi.
- 5. Matnga rang berish va matnni taxrirlash qanday amalga oshiriladi.

Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:

1. Photoshop dastursida ixtiyoriy matnni kiriting va rasmda ko'rsatilganidek xolatga



o'tkazing va qilingan ishlarni izoxlang.

2. Photoshop dastursida ixtiyoriy rasmdan fon sifatida foydalaning va rasmda

ko'rsatilganidek matnni xosil qiling va qilingan ishlarni izoxlang.

Foydalaniladigan adabiyotlar:



- 1. Sh.Razzoqov, Sh.Yo'ldoshev, U.Ibragimov, Kompyuter grafikasi, O'quv qo'llanma, Toshkent, 2006 y.
- Asqarov B va boshqalar «Kompyuter grafikasi» fanidan amaliyot ishlarini bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar (1-qism). Tosh. dav. texn. un-ti.-Toshkent, 2008,
- 3. F. Koburn, P.Makkormik «Corel Draw 9» SPB., 2000g.
- 4. A.O.Kotsyubinskiy «Risunki na kompyutere» M., 2000g.

3.7.Photoshop dasturida qatlamlar bilan ishlash

3.7.1. Qatlamlar xaqida tushuncha va yangi qatlam yaratish

Qatlamlar xuddi oyna qatlamlariga o'xshagandir faqat tasvir bo'lgan joylarigina ko'rinishga ega bo'ladi. Xar bir qatlam uchun o'zining shaffoflik darajasi bo'lib uni undan oldingi va keyingi turgan qatlamlar bilan xamoxangligini moslash mumkin. Qatlamlarni joylashish o'rnini almashtirish yoki ularni yagona qatlamga birlashtirish mumkin. Bir vaqtni o'zida xar xil qatlamlarda turgan tasvirni birgalikda o'zgartirish va bir qatlamda turgan rasmni faqat bir qismini o'zgartirish mumkin emas.

Layers (Sloi) oynasida qatlamlar ustida turgan qatlamdan eng tagidagi qatlamgacha aks etirilgan. Bunda fon qatlami oxirida joylashadi (*1-rasm*). Xozirda belgilangan qatlam aktiv bo'lib ko'rinadi va faqat shu qatlam ustida amallar bajarish mumkin.

Istalgan qatlamni aktivlashtirish uchun tartiblanish oynasidan uni ustiga bosish kerak aktiv bo'lgan qatlam nomi programma nomi yonida akslanib turadi.

Layers		
Normal	▼ Opacity: 100% ▶	
Lock:	🏒 🕂 📾 🛛 Fill: 100 % 🕨	
6	TLayer	<u> </u>
	Flower	
	Angels	-
	Ø. 🗆 🗆 Ø. 🖬	3 //

1-rasm. Layers palitrasi.

Katta xajmdagi tasvirlar bilan ishlayotganda bajarilib bo'lgan qatlamlarni birlashtirgan yoki o'chirib tashlash maqul, shunda programma ishlash tezlik unimdorligi oshadi va tasvir xajmi kamayadi.

Yangi qatlam xosil qilish(Sozdanie novogo sloya)

1. Eng avvalo 100% shaffof qatlam xosil qilish uchun **Create New Layer** tugmasi ustiga bosiladi.

2. Agar qatlamni o'lchamlarini o'zingiz bermoqchi bo'lsangiz unda Alt, tugmasini bosib turgan xolda **Create New Layer** tugmasi bosiladi va quyidagicha yo'l tutiladi:

3. Name (Imya, Ism) bo'limida qatlamni nomini kiritiladi Group With Previous Layer (Sgruppirovat s predudushim sloem) bo'limiga bayroqcha o'rnatiladi.

4. **Layers** (Sloi) palitrasidan ko'z va mo'yqalam ko'rinishidagi piktogrammalarga bayroqcha o'rnatiladi.

Mode (Rejim smeshivaniya) va **Opacity** (Neprozrachnost) parametrlaridan tasvir uchun yangi parametrlari beriladi(keynchalik bu parametrlar o'zgartirilishi mumkin).

5. OK tugmasini bosiladi. Yangi qatlam ishlatilayotgan qatlam ustida paydo bo'ladi.

Tasvir xajmini kamaytirish uchun **Layers** (Sloi) menyusidan **Palette Options** (Optsii palitro') buyrug'i tanlanandi va shu tasvirga to'g'ri keladigan eng kichik xajm tanlanadi.

Belgilangan qismni qatlamga aylantirish(Prevrahenie vydelennoy oblasti v sloy)

1. Belgilangan qismni xosil qiling.

2. Layer > New > Layer Via Soru (Sloy > Novyy > Posredstvom kopirovaniya) menyusidan komanda bajariladi (CtrlQJ tugmalari).

Tasvirni belgilangan qismini qirqib olib tashlash uchun Layer > New > Layer
 Via Cut (Sloy >Novo'y > Posredstvom vo'rezaniya) komandasi bajariladi (CtrlQ
 ShiftQJ tugmalari).



2 – rasm. Layer 1 xiralashtirilgan fondan xosil qilingan tasvir

Nazorat topshiriqlari.

1. Photoshop dasturida qatlamda turgan rasmni faqat bir qismini o'zgartirish mumkinmi?.Javobingizni izoxlab bering.

- 2. Photoshop dasturida yangi qatlam qanday xosil qilinadi?
- 3. Photoshop dasturida belgilangan qismni qanday qatlamga aylantirish mumkin?
- 4. Photoshop dasturida tasvir xajmini kamaytirish qanday amalga oshiriladi?

3.7.2. Xosil qilingan qatlam ustida amallar bajarish

Qatlamni siljitish (Peremehenie sloya) Layers (Sloi) oynasida o'zgartirish kiritmoqchi bo'lgan qatlami belgilanadi.

- 1. Move (Peremeshenie) uskunaini aktivlashtiriladi (V klavishasi).
- 2. Qatlamni kursorni ushlab turgan xolatda qatlamni siljitiladi (3 va 4rasm).





3-rasm. Amaldagi tasvir

4-rasm. Matnli qatlamni Move uskunai yordamida siljitilishi

Auto Select Layer (Avtovo'delenie sloya) bo'limida bayroqcha turgan bo'lsa Move (Peremehenie) uskunasi yordamida tezda qatlamni siljitish mumkin, ammo bu siljitish shaffofligi 50% dan kam bo'lgan qatlamlar uchun ishlamaydi.

Qatlamlar bilan ishlash uchun uskunalar. (Instrumento' dlya raboto' so sloyami)

Barcha uskunalar qatlamlar bilan ishlaydi lekin bu bilan qatlamning shaffofsizligiga katta ta'sir o'tkazadi shuning uchun qatlam shaffofsizligini doimo nazorat qilib turish lozim.

Qatlamni o'chirish(Udalenie sloya iz nabora)

Qatlamni o'chirishdan oldin uni nomini faolligi tekshiriladi va uni belgilab o'chirib tashlanadi.

Qatlamga effektlar qo'llash (Primenenie effektov sloya)

Qatlamga quyidagi maxsus effektlarni qo'llash mumkin: Drop Shadow (Otbrosit ten), Inner Shadow (Vnutrennyaya ten), Outer Glow (Vneshnee svechenie), Inner Glow (Vnutrennee svechenie), Bevel and Emboss (Skos i relef), Satin (Atlas), Color Overlay (Nalojenie tsveta), Gradient Overlay (Nalojenie gradienta), Pattern Overlay (Nalojenie uzora) va Stroke (Kayma). Effektlarni istalgan paytda istalgancha istalgan qatlamga qo'llash mumkin, lekin qatlamni shaffofsizligini tekshirib turing. Uslub(stili) va effektlarni bir biri bilan chalkashtirib yubormang. Uslub (Stil) – bu bir qancha qatlam effektlarini xamoxangligidir.

Effektlar Layer Style (Stil sloya) muloqot oynasi orqali amalga oshiriladi.

Effekt yonidagi bayroqcha bu effektni shu qatlamga qo'llanilganini ko'rsatadi. qatlam effektlarini asosiy fon uchun qo'llash mumkin emas.

Hamma qatlamlarni birgalikda ishlatish(Zadeystvovanie vsex sloev)

Agar optsiyalar panelida quyidagi uskunalar ishlatilayotgan bo'lsa: **Blur** (Razmo'tie), **Sharpen** (Rezkost), **Smudge** (Palets), **Paint Bucket** (Vedro s kraskoy), **Magic Eraser** (Volshebno'y lastik) ili **Magic Wand** (Volshebnaya palochka) unda Use All Layers (Ispolzovat vse sloi) bo'limiga bayroqcha o'rnatiladi, shunda rang va boshqa o'lchamlar olinayotganda mavjud bo'lgan ranglarga yaqin bo'lgan tuslar birinchi navbatta ko'rinadi. Faqat aktiv bo'lgan qatlamda ranglar o'zgaradi.

Ikki qatlamni birlashtirish(Sliyanie dvux sloev)

1. Birlashtirmoqchi bo'lgan ikki qatlamdan qaysi birisi oldinroq bo'lsa u belgiladi.

2. Layers (Sloi) menyusidan Merge Down (Slit s nijnim) komandasini belgilang yoki CtrlQE tugmalari birgalikda bosiladi. Aktiv qatlam o'zidan pastda turgan qatlam bilan birlashadi. Bir qancha belgilangan qatlamlarni birlashtirish uchun Merge Layer Set (Slit nabor.sloev) komandasi tanlanadi.

Qatlamlarni birlashtirish(Ob'edinenie sloev)

Flatten Image (Ploskoe izobrajenie) komandasi qatlamlarni pastdan boshlab birlashtiradi va yashirilgan qatlamlarni avtomatik tarzda o'chiradi.

Hamma qatlamlar ko'rinib turganligiga amin bo'linadi va qaysi qatlam aktiv bo'lishi muxim emas. **Layers** (Sloi) menyusidan **Flatten Image** (Ploskoe izobrajenie) komandasi tanlanadi. Agar programmada bekitilgan qatlamlar bo'lsa unda ogoxlantirish beriladi va OK tugmasi bosiladi xamda birlashtirish davom ettiriladi. Agarda pastki qatlamlarda ko'rinmaydigan nuqtalar bo'lsa ular oq ranga kiradi.

Qatlamni uchirish(Udalenie sloya)

Layers (Sloi) menyusidan keraksiz qatlam nomi tanlanadi. So'ngra Trash (Korzina) tugmasini bosiladi va Yes (Da) tugmasi xam bosiladi.

Qatlamni o'chirishni yana bir usuli keraksiz qatlam nomi ustiga olib borib sichqonchani o'ng tugmasi bosiladi va menyudan **Delete Layer** (Udalit sloy) bo'limi tanlanadi xamda Yes tugmasi bosiladi.

Nazorat topshiriqlari.

- 1. Qanday usulda qatlamlar xosil qilinadi?
- 2. Qatlamlarga qanday effektlar qo'llash mumkin?
- 3. Ajratilgan qisimda yangi qatlamni xosil qilishni ko'rsatib bering.
- 4. Qatlamlar bilan ishlash uchun qanday uskunalarni bilasiz?
- 5. Hamma qatlamlarni birgalikda ishlatish qanday amalga oshiriladi
- 6. Ikki qatlamni birlashtirish qanday amallarni bajarish lozim?

Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1. Photoshop dasturida qatlamlar bilan ishlash va ularning axamiyati haqida ma'lumot tayyorlang.
- 2. Photoshop dasturida qatlamlar ustida amallar bajarish tartiblari haqida ma'lumotlar to'plang.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

- M. M. Aripov, T. Imomov va boshqalar «Informatika, axborot texnologiyalari» T. TDTU, O'quv qo'llanma, 1-qism, 2002 yil.
- S. S. G'ulomov, A. T. Shermuxammedov, B. A. Begalov «Iqtisodiy informatika» T. – «O'zbekiston» – 1999 yil.
- 3. T. X. Xolmatov, N. I. Taylaqov, U. A. Nazarov «Informatika va hisoblash texnikasi» T. «O'zb.M.E.» 2001 yil.

3.8. Photoshop dasturida tasvirlarni filtrlash

3.8.1. Unsharp Mask, Sharpen Edges filtrlari

Agarda tasvir oʻlchamlarini yoki ajrata olishni oʻzgartirgan boʻlsangiz, Resample Image (Otslejivat izmeneniya)da bayroqcha mavjud boʻlgan boʻlsa va keyin tasvirni CMYK rejimiga oʻtkazsangiz yoki tasvirdagi oʻzgartirishlarni (transformatsiya) amalga oshirsangiz, u holda interpolyatsiya natijasida tasvir aniqligi yoʻqoʻladi. Berilgan Unsharp Mask (Maska nerezkosti) filtri yordamida fokusirovka effekti qilinadi. Bu filtr ikkita qoʻshni nuqtalar orasidagi kontrastlikni orttiradi (koʻpaytiradi), agarda ular bir-biri bilan kontrastlikda boʻlsa. Filtrning keyingi parametrlarini ham koʻrsatsa boʻladi:

- ravshanlik parametrini oshirish Amount (Kolichestvo) yordamida;
- kontrastni oshirish uchun har bir nuqta atrofidagi nuqtalar sonini oshirish (parametr Radius (Radius));
- filtrning qaysi nuqtalarga ta'sir qilishini va qaysilariga ta'sir qilmasligini aniqlash uchun joriy kontrastlikning minimal ko'rsatkichini ko'rsatish kerak (parametr Threshold (Porog)).

Filtrni Unsharp Mask qoʻllash effekti ekranda bilinishi mumkin, yuqori ajrata olishli printerlarda esa u sezilmaydi.

1.Filter > Sharpen > Unsharp Mask (Filtr > Rezkost > Nerezkoe maskirovanie) menyusining buyruqlarini tanlang 3.99-rasm.

2.Amount (Kolichestvo) filtri, piksellar orasidagi kontrastlik qanchaga kattalashishini koʻrsatadi.

